

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
FIZIKA-MATEMATIKA FAKUL`TETI
UMUMTEXNIKA FANLARI VA KASB TA`LIMI KAFEDRASI**

Madaminova Hilolaxon Muhtorjon qizining

**Kasb-hunar kolejlarida “Kiyimlarni modellash” fanidan “Ayyollar
mavsumiy va qishki paltolarini modellash va badiy bezak berish”
mavzusini o`qitish asoslari mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Namangan-2014 yil

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**FIZIKA-MATEMATIKA FAKUL'TETI
UMUMTEXNIKA FANLARI VA KASB TA'LIMI KAFEDRASI**

**“DAK ga tavsiya etaman”
Fizika-matematika fakulteti dekani
_____ dots.X.Mavlyanov
“ ____ ” _____ 2014 yil**

**« KASB-HUNAR KOLEJLARIDA “KIYIMLARNI
MODELLASH” FANIDAN “AYYOLLAR MAVSUMIY VA
QISHKI PALTOLARINI MODELLASH VA BADIY BEZAK
BERISH” MAVZUSINI O`QITISH ASOSLARI» MAVZUIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajardi: «Kasb ta'limi» yo'nalishi bitiruvchi
4-kurs talabasi Madaminova.X.M

Rahbar: o`qituvchi. Madrahimov Sh.X.

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi. Kafedraning__ sonli bayonnomasi. « ____ » _____ 2014 yil.

Namangan – 2014

REJA

I-bob.

Kirish.

- 1.1. Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.....
- 1.2. Tadqiqotning masad va vazifalari
- 1.3. Ishning o'rganilish darajasining qiyosiy taxlili.
- 1.4. Tadqiqotning ilmiy yangiligi.
- 1.5. Tadqiqot ob'ekti va predmeti.
- 1.6. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati.

II-bob.

- 2.1. Kasb-hunar kollejlardagi "Kiyimlarni modellashtirish" fanini kichik mutahassislarni tayyorlashdagi o'rni.
- 2.2. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga "Ayollar mavsumiy va qishki paltolarini modellashtirish va badiiy bezak berish" mavzusini o'rgatishning asosiy talablari hamda bosqichlari.....
- 2.3 Kasb –hunar kollej o'quvchilariga "Kiyimlarni modellashtirish" fanidan "Ayollar mavsumiy va qishki paltolarini modellashtirish va badiiy bezak berish" mavzusini yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitish metodikasini ishlab chiqish.....
- 2.4. Kiyimlarni modellashtirish fanini o'qitish jarayonida hayotiy faoliyat xavfsizligi
- 2.5. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va ularning tahlili.....

III-bob.

Xulosa.....

Ilovalar.....

Foydalanilgan adabiyotlar.....

Internet ma'lumotlari.....

KIRISH

Bugun har bir fikrlovchi inson XXI asrning, yangi asrda o'zi, yaqinlari, kasbdoshlari, tengdoshlarining jamiyatdagi o'rni va salohiyati qanday bo'lishini o'ylashi tabiiy.

O'tgan asrning ahamiyati, qadr-qimmati, tarixiyligi yana shundaki, O'zbekiston mustaqil davlat bo'ldi. Mustaqil davlat o'zining asosiy qonuni – Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan bir qancha muhim tarixiy xujjatlariga ega bo'ldiki, ular orasida O'zbekistonda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» alohida o'rin tutadi. Undagi g'oyalar, avvalo, XXI asrda yashaydigan, ijod qiladigan, Vatan va yurt mustaqilligini mustaxkamlovchi insonlarning manfaatini ifodalaydi. Dasturda e'tirof etilgan kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarida shu narsa alohida belgilanadiki, ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish ta'lim – tarbiya dasturlarining intellektuallashuvini ta'minlaydi. O'tgan asrni sarhisob qilib, yangi yuz yillik va ming yillikning qanday bo'lishini tasavvur etarkanmiz, uning eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida yangi ta'lim dasturlarida nazarda tutilayotgan zamonaviy axborot texnologiyalari, ta'limni kompyuterlashtirish va kompyuterlash tarmoqlari tizimida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlashning rivojlanishini nazarda tutmoqdamiz. Zero, milliy dasturni ro'yobga chiqarishga doir tashkiliy ishlarda e'tirof etilganidek, «Ta'limni axborot bilan ta'minlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish, uni jahon axborot tizimi bilan bog'lash ommaviy axborot vositalarining ta'lim sohasidagi vazifalarini belgilash» malakali kadrlar tayyorlashning muhim mezonlaridandir.

Respublikamiz inson huquqlari va erkinliklarga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda.

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy hulq-atvorining andozalarini o'zgartirish

respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integrasiyasi, respublikaning jahondagi mavqei va obro'- e'tiborining mustahkamlanib borayotganligi.

Ushbuni ro'yobga chiqarish quyidagi vazifalar hal etilishini nazarda tutadi:

2. Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari xamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmui izchil rivojlantirishni ta'minlash;

ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanishni, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash:

kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatining nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'rtarish:

kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish:

ta'lim oluvchilarning ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish:

ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestasiyadan o'tkazish va akkreditasiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish:

yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyati ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustivorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-

texnika va axborot bazasini yaratish:

ta'lim, fan va ishlab chiqarishni samarali integrasiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish:

uzluksiz ta'lim va kadr tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan chet el investisiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

3.Kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

4.Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarilmoqda.

Hal etuvchi uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar)- to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish ishlari jadal amalga oshirilmoqda.

Shunday qilib, ta'lim taraqqiyotining haqqoniy harakatlantiruvchi kuchi sifatida mavjud didaktik masalalar va ungo moye keladigan pedagogik texnologiya asosida oqilona ko'rilgan pedagogik tizim xizmat qiladi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi standartlari orqali sifatli ta'lim olish, shuningdek, ta'lim va kasb-hunar jihatidan tayyorgarlikning shakllari va turlarini tanlashga keng imkoniyatlari yaratadi.

Ta'limni xizmatlarning iste'molchisi sifatida shaxsga davlat ta'lim olish va kasb-hunar tayyorgarligi ko'rish kafolatlanadi. Ta'lim olish jarayonidagi shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

1.1. Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki davrlardanoq jahon tsivilizatsiyasi taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan milliy ma'naviyatimiz asosida kelajagi buyuk davlat barpo etish bosh maqsad qilib belgilandi. Buyuk maqsadga erishishda asosiy e'tiborni yosh avlodni barkamol, ma'naviy va jismonan sog'lom, yuqori malakali kasb egasi qilib tarbiyalashga qaratilgani esa, milliy an'analarimiz mentalitetimizning o'ziga xos tarzda ifodalanishidir. Prezident I.A.Karimov tomonidan taklif etilgan va izchil amalga oshirib borilayotgan Kadrlar tayyorlar milliy dasturi bugungi kunda jahon miqyosida e'tirof etildi va o'zining dastlabki natijalarini bermoqda.

Ta'limdagi xozirgi xolatni I.A.Karimov "Bizning xalqimiz sabr-bardosh, yaxshilik, osoyishtalik, boshqa xalqlarga nisbatan xayrixohlik ruhida tarbiyalangan. Bu xalq bugun bizdan himoya talab qilyapti, tinch-totuv hayot, og'ir mehnatiga yarasha turmush sharoitlarini talab qilyapti. Bu—haqqoniy talabdir", deb ko'rsatmoqdalar. Shu ma'noda, bugun nishonlanayotgan xotira va qadrlash marosimining ma'no, mazmuni, ya'ni o'tganlarni va hayot bo'lganlarni qadri, vatanni himoya qilish, daxlsiz saqlash, kabi fazilatarni yosh farzandimizning ongi tafakkuriga singdirish, farzandlar va bolalarimizning biz kim-kimning avlodi deb, bobolarimizning jasoratidan ibrat olib, mana shu musaffo osmonni, onavatanimizni biz asramasak kim asraydi, degan e'tiqod bilan yashash xech shubhasiz bugungi va ertangi hayotimiz uchun juda katta ahamiyatga ega, deyдилar Islom Karimov.

Shunday ekan kasb-hunar kollejarida ta'lim olayotgan yosh avlodni to'g'ri yo'lga qo'yilgan uslubiy ishlar o'quv-tarbiyaviy ishlarni uzluksiz ravishda takomillashtirib borishning eng muhim vositalaridan biri ekanligi; o'qituvchilar uchun o'z mutaxassisligi bo'yicha ilg'or tajriba usullarini amaliy tarzda egallab olishi, ta'lim mazmunini chuqurlashtirish va sifatini oshirish maqsadida tashkil etilishi, o'quvchilarni unumli mehnatga jalb qilinishlari muammoning dolzarbligini belgilaydi. Fan-texnikani takomillashishi kollej ta'lim jarayoniga

katta tasir ko`rsatadi. Shu sababli “Kiyimlarni modellashtirish” fanini o`qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo`llab o`qitish maqsadga muvofiqdir.

1.2. Tadqiqotning masad va vazifalari

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta`lim to`g`risida»gi qonun, Prezident asarlari, O`zbekiston Oliy Majlisi xujjatlari, Vazirlar Maxkamasi qaror va ko`rsatmalari ta`limni takomillashtirishga bag`ishlangan ilmiy uslubiy asarlarini tahlili asosida Kasb-hunar kolejlarida “Kiyimlarni modellashtirish” fanidan mashg`ulotlarda o`quvchilarga “Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellashtirish va badiiy bezak berish”ga oid bilimlarini shakllantirish omillari olindi.

Mashg`ulotlarda o`quvchilarni ishlab chiqarishda fan-texnika ta`siri, ularni ishlab chiqarish sharoitiga tayyorlash, beriladigan bilim, ko`nikma va malakalarni ongli yetkazilishini o`rgatishdan iborat.

1.3 Ishning o`rganilish darajasining qiyosiy taxlili

Kasb-hunar kolejlarida “Kiyimlarni modellashtirish” fanidan “Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellashtirish va badiiy bezak berish” mavzusidagi mashg`ulotlarni ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish orqali dars samaadorligini oshirish;

1.4 Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellashtirish va badiiy bezak berish mavzusiga oid nazariy ma`lumotlar va amaliy ishlar mazmuniga oid tavsiya ishlab chiqiladi.

Mashg`ulotlarda o`quvchilarni yangi texnika va ilg`or texnologiya asoslariga oid uslubiy tavsiyalar yaratiladi.

Mashg`ulot jarayonida yangi pedagogik texnologiya elementlaridan qay tartibda foydalanish to`g`risida ko`rsatmalar beriladi.

1.5. Tadqiqot ob'ekti va predmeti

O`quvchilarning ta`lim jarayonida ishlab chiqarish sharoitiga tayyorlash amaliy mashg`ulotlari jarayonidagi faoliyati samaradorligi yanada ortadi agarda:

mashg`ulotlarni o`tish uslublari yangi pedagogik texnologiyalarga asoslansa;

mashg`ulotlar jarayonida o`quvchilarni fanlararo aloqani amalga oshirish uchun yetarli sharoit yaratib berilsa.

Kollejlarda o`quvchilarni yangi texnika va ilg`or texnologiyalar bilan tanishtirish va ishlab chiqarish sharoitiga oid ko`nikma malakalarini shakllantirishning pedagogik va psixologik tamoyillari olindi.

1.6 Tadqiqotning ilmiy ahamiyati

Kasb-hunar kolejlarida “Kiyimlarni modellashtirish” fanidan “Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellashtirish va badiiy bezak berish” mavzusidagi mashg`ulotlarni ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish orqali dars samaradorligini oshirish;

2.1. Kasb-hunar kollejlari "Kiyimlarni modellash" fanini kichik mutahassislarni tayyorlashdagi o'рни.

Kiyim insonning ijtimoiy hayotida eng zaruri, ehtiyoji hisoblanadi. Kiyimni modellashtirish tikuvchilik sanoatining eng muhim va murakkab bosqichidir. Model vazifasi keng ommaning kiyim-kechakka bo'lgan va uning tashqi ko'rinishiga ega bo'lgan ehtiyojini qondirishdan iboratdir. Modellashtirish keng assortimentda maqsadga muvofiq qulay zamonaviy kiyimlar yaratishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yiladi.

Modellashtirishning maqsadi—o'z san'ati, qudrati bilan jamiyatni estetik tarbiyalash, madaniyatni yuqori pog'onalarga ko'tarishdir. Shuningdek, o'z zamonasining turmush tarzi, fan va texnika yutuqlari, milliy urf-odatlarini, iqlimi, sharoitini aks ettirishdir.

Yangi modellarni ijod etish bilan modalar uyi, ishlab chiqarish korxonalarini, yakka buyurtma korxonalarini va yakka tartibda ishlaydigan rassom modelyerlar, muxandis loyixachilar shug'ullanadilar.

Modellashtirish ikki xil yo'nalishda olib boriladi:

1. Ijodiy – istiqbol uchun model.
2. Ishlab chiqarish korxonalarini uchun model.

Ijodiy model. Rassom modelyerlar istiqbol uchun bir qancha modellar to'plamini mavsumiy kiyinish o'rniga qarab, eskizlarni tayyorlaydi, bu eskizlar to'plami avval modalar uyi kengashida ko'rib tanlanadi va tasdiqlanadi. Modalar uyi kengashining a'zolari:

- a) modalar uyi bosh muxandisi;
- b) bosh loyihachi muxandisi;
- v) bosh muxandis texnologini;
- g) xom ashyo bilan ta'minlovchi korxonani vakili;
- e) savdo xodimlaridan vakil qatnashadi.

Tasdiqlangan eskizlar bo'yicha modelyer, loyixachi, texnolog ishtirokida namuna modellar standart gavdalar uchun tayyorlanadi. Tayyorlangan modellar

modalar uyi kengashining yangi hal qiluvchi kengashida ta'minlab tasdiqlanadi va ularni modalar uyining kichik seriyali ishlab chiqarishiga beriladi.

Modalar uyi ishlab chiqarishi kiyimni mehnat taqsimotiga asoslangan bo'lib, 100 dan 300 gacha aholi talabini o'rganish uchun kiyim tayyorlanadi va bu yangi modeldagi kiyimlar modalar uyi qoshidagi «yangilik» nomli do'konda savdoga qo'yib, aholi talabi o'rganiladi. Har bir model uchun savdo xodimi iste'molchilarning taklif muloxazalarini yozib boradi.

Bundan tashqari, tasdiqlangan modellar namunalari modalar uyi qoshidagi teatrlari namoyishi zalida namoyish qilinadi va moda jurnallari orqali fotosur'atlari targ'ib qilinadi. Shuningdek, savdo markazlarida, televizorda modellarning mavsumi namoyish etib targ'ib qilinadi.

Ishlab chiqarish uchun model shu ishlab chiqarish korxonasi buyurtmasi asosida eskizlar to'plami chizib tayyorlanadi. Bunda shu korxonaning hohishi, xom ashyosi jihozlari va shart-sharoitlari hisobga olinadi. Bu eskiz va modellarni tasdiqlash vaqtida shu korxonaning ma'sul vakili qatnashadi. So'ng kichik seriyada ishlab chiqarish korxonaning o'zida ishlab chiqarilib, o'ziga tegishli savdo do'konida aholi talabi o'rganiladi.

Ikkala xil yo'nalishda olib boriladigan ishlar 3 xil bosqichda bajariladi:

1. Badiiy modellash.
2. Loyixalash bosqichi.
3. Texnik modellash.

Har qanday buyumni tikishga, ya'ni uni bichishga, unga texnologik ishlov berishga kirishishdan oldin birinchidan, uning badiiy loyixasini, sodda qilib aytilganda, eskizini yaratish kerak – bu bosqichga badiiy modellash deyiladi. Ikkinchidan, asosiy konstruksiyani, ya'ni asosini hisoblash va chizish kerak, buni konstruksiyalash deyiladi. Uchinchidan, hisoblashlar va maket yasash yo'li bilan taxlamalarni, burmalar, koketkalar, cho'ntaklar, qirqmalarni va hokazolarni ishlab chiqish kerak – bunga texnik modellash deyiladi.

Bu ishlarning birinchi qismini odatda modelyer rassomlar bajaradilar. Ular

modelning rangli eskizini gazlamaning xususiyati, gavda turi, faslga, kishining yoshiga, kiyimning bezaklariga e'tibor berib chizadilar. SHuningdek, kerakli ma'lumotlar eskiz tagiga yozib qo'yiladi.

So'nggi ikkitasini esa loyihachilar bajaradilar (ularni ko'pincha loyihachi-rassomlar deyishadi). Ular bir-birlarining ishini yaxshi bilishlari va tushunishlari kerak, chunki modelyerlar, konstruktorlar va texnologlarning mehnati o'zaro bog'liq va umumiy ishning pirovard natijasi uchun birdek muhim.

Ateleda bichiqchining o'zi modelyer-rassom bilan konstruktorning ishini bajaraveradi, u texnologik jarayonning hammasini ham biladi, lekin texnologik jarayonni ko'klovchi, qo'l ishlarini bajaruvchi, motorchi, dazmolchi degan maxsus ustalar bajaradilar. Uy sharoitida rassom ham konstruktor ham, texnolog ham bir odamning o'zi bo'ladi. Shuning uchun ishning barcha bosqichlariga – model tanlash va yaratishga, hisoblashga, bichishga va ishlov berishga – to'la ma'lumot bilan qarash kerak.

Kiyimning tarixiy rivojlanishiga, uning o'zgarishiga uslub va moda sabab bo'ladi.

Uslub–bu jamiyat moddiy va ma'naviy madaniyatidagi muhim va xarakterli belgilar obrazli sistemasi ijodiy printsiplarning tarixan tarkib topgan bir qadar barqaror mushtarakligidir. Uslub – bu davrning badiiy tili, uning badiiy tavsifidir. Uslub katta tarixiy davrga bog'liq bo'lib, u san'at sohasidagi badiiy didning birligini ko'rsatadi: ya'ni arxitektura, haykaltaroshlik, rassomlik, muzika, adabiyot va dekorativ amaliy san'ati orasidagi birligini ko'rsatadi.

Har bir davrning o'ziga xos badiiy uslubi bo'ladi. U jamiyat hayotidagi muhim omillarni aks ettiradi. Har qaysi tarixiy davr o'zi uchun xarakterli shakllarni tanlar, inson ma'lum darajada kostyumda o'z ifodasini topgan muayyan estetik idealini o'ziga bo'ysundirar edi.

Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya, iqlim, tevarak atrofdagi tabiat xalq an'analari, turmush tarzi, yirik ijtimoiy-siyosiy voqealar, fan, texnika, sportga ommaviy qiziqishi, yangi materiallar paydo bo'lishi, kosmik davr kabi turli tuman omillar

modani shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Kiyimning modellarini loyihalashdan uni badiiy hal etish masalalari «Kiyimning maxsus kompozitsiyasi» masalasini hal etishda o'rganiladi.

Kompozitsiya – badiiy asar shaklining barcha elementlarini mazkur asarning obrazli g'oyaviy-badiiy mazmunini ifoda etuvchi uzviy bir butunlikka birlashtirish.

Kiyim kompozitsiyasi – kiyim shakli barcha elementlarini, uning mazmunini ifoda etadigan birlikni barpo etish vositalari yordamida tuzib chiqish. Kiyimning mazmuni uning nimaga mo'ljallanganiga qarab belgilanadi. Kiyim shaklining kompozitsiyasi uning mazmunini ochib berishga olib kelishi kerak.

Kompozitsiya maxsus badiiy tildan iborat bo'lib, uning yordamida san'atkor borliqni aks ettiruvchi g'oya va tuyg'ularni tasvirlab beradi. Badiiy obraz borliq in'ikosining estetik shakli hisoblanadi. Kiyimning badiiy obrazi – bu kiyimning konkret vazifasini va borliqni aks ettiruvchi asosiy g'oyani ifodalovchi modelning umumiy qiyofasi. San'atkor yaratgan har bir modelning obrazi insonga ta'sir etishga qodir emotsional va ta'sirchan bo'lishi kerak. Kiyim har erda va hamma vaqt odam bilan birga bo'lib, unga ishonch, qadr-qimmat, optimizm tuyg'ularini baxsh etishi yoki aksincha, uni tushkunlik va xafalik holatiga duchor qilishi mumkin.

Shunday qilib, kiyimning obrazli ifodaviyligiga kompozitsiya san'ati vositasida, ya'ni kiyimni tashkil etuvchi hajmlar, ranglar, chiziqlar, detallar va bezak elementlarini yagona uzviy bir butun qilib birlashtirish vositasida erishiladi.

Biroq modelyerning kiyim va butun kostyum obrazi ustidagi ishi eng muhim jihatga, ya'ni vazifa nuqtai nazaridan qulay, hayotda o'rinli kiyim yaratishga bo'ysundirilgan bo'libgina qolmay, balki ifodali bo'lishi ham kerak.

Kompozitsiya san'ati san'atkorning qiziq va muhim jihatlarni ko'ra bilish va alohida tarqoq komponentlarni bir butunlikka uyushtira bilish mahoratidan iborat.

2.2. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga "Ayollar mavsumiy va qishki paltolarini modellashtirish va badiiy bezak berish" mavzusini o'rgatishning asosiy talablari hamda bosqichlari.

Ayollar paltosi assortimentiga qishki, bahorgi, mavsumiy palto va yarim paltolar kiradi. Paltolar turli-tuman modelda to'g'ri, nim yopishgan va trapetsiyasimon siluetda bo'ladi. Tugma qadash usuli adip kengligiga ko'ra bir va ikki bortli paltolarga bo'linib, taqilmalar tugma va izmaga, knopkaga, molniyalik lentaga qadalladi.

Paltolar - ko'p qavatli tikuv buyumlari bo'lib, ular ustki – asosiy gazlama, astarlik, qotirmalik (flizilin, dublirin) shuningdek, qishki paltolar isituvchi qatlamlardan iborat.

Paltolar - o'tqazma, reglan, old va ort bo'lak bilan yaxlit yengli qilib ham loyihalangani. Yeng uchlariga qirqma, qaytarma manjetli, ochiq, yopiq qirqimli, mo'yna bilan ishlov berilgan va h.k. qilib ishlov beriladi.

Tanlangan modelga qarab - qoplama, qirqma qopqoqli, listochkali, ramkali cho'ntaklar ishlanadi va ular bezak va biriktiruvchi choklarda tikiladi.

Palto astari – etak bilan biriktirib tikiladi yoki astar etagiga ishlov berib ochiq qoldiriladi.

Yoqalar qaytarmali, tik, kapyushonli qilib ishlanadi. Ba'zi modeldagi paltolar yoqasiz bo'ladi.

Palto uzunligi moda yo'nalishiga qarab (uzun, kalta) tanlanadi.

Ayollar paltosiga; turli xil taxlamalar, burmalar, har xil razmer va konstruksiyadagi releflar, bezak materiallar (charm, zamsh) bezak chok bilan, applikatsiya usulidan foydalanib, bezak beriladi.

Paltodagi furnituralar nafaqat funktsional, balki dekorativ vazifalarni bajaradi: ya'ni ularga turli razmer va shakldagi tugmalar, lentalar, knopkalar, ilmoqlar, izmalar, shuningdek, plastmassa, yog'och, charm, zamsh bezak elementlari kiradi.

Ayollar paltosining konstruksiyasini qurish uchun razmyer o'lchovlarini tanlash va ularni o'lchash qoidalari

O'lchamlar indeksi bosh harflar bilan belgilanadi:

R – bo'y;

O – aylana;

S – yarim aylana;

Sh – kenglik;

D – uzunlik;

V – balandlik;

S – markaz nuqtalari orasidagi masofa.

Uzunlik, balandlik va yelka kenglik to'la o'lchamda yoziladi. Bo'yin yarim aylanasini, ko'krak, bel, bo'ksa esa to'liq aylanada o'lchanib, yarim o'lcham holida yoziladi. Yarim o'lcham holida yana quyidagilar yoziladi, kenglik hamda markaz nuqtalari orasidagi masofa (ko'krak uch bezlari), chunki qurilayotgan andoza yarim qomatga chizilayotgani uchun.

O'lchov belgilarini aniq qomatdan o'lchash qoidalari 1,2-jadvallarda keltirilgan.

Ayol qomatining asosiy o'lchamlari


Barcha indeksli bosh harflar yozuv va chizmalarda kiyim konstruksiyasining birgina SOTShL metodiga mos keladi.

O'lchov olish tartibi

№	Indeksl i bosh harflar	Nomlanishi	O'lchanishi
1.	2.	3.	4.
1.	S _{bo'yin}	Bo'yin yarim aylanasi.	Santimetrli lenta bo'yin asosi bo'ylab, orqa yettinchi bo'yin umurtqa usti bilan old bo'yin asosiga kelib tutashadi.
2.	S _{kI}	1-ko'krak yarim aylanasi.	Sanimetrli lenta ko'kraklarga yotqiziladi. Orqadan lenta gorizental holatda ustki cheti bilan qo'ltiq chuqurligi orqa burchaklariga urinib o'tadi. Old tomonda lenta ko'krak bezlari ustidan o'tib o'ng tomonda biriktiriladi. Lentaning ustki chetiga belgi qo'yiladi va o'lchamning yarmi yoziladi.
3.	S _{kII}	2-ko'krak yarim aylanasi	Santimetrli lenta ko'kraklarga gorizental tarzda yotqiziladi. Ustki cheti bilan qo'ltiq chuqurligining orqa burchaklariga urinib qo'ltiq tagidan og'ma ravishda o'tadi. Old tomonda santimetrli lenta ko'krak bezlarining uchidan o'tib, o'ng tomonda biriktiriladi. O'lchamning yarmi yoziladi. 1, 2-ko'krak aylanalari orqasidan santimetrli lentani siljitmay birin-ketin uzluksiz o'lchanadi.
4.	S _{kIII}	3 ko'krak yarim aylanasi	Santimetrli lenta tana atrofidan, ko'krak nuqtalari ustidan gorizental bo'yicha o'tib, o'ng tomondan biriktiriladi. O'lchamning yarmi yoziladi.
5.	S _{bel}	Bel yarim aylanasi.	Santimetrli lenta tana atrofidan, bel chizig'i sathidan o'tadi va o'lchamning yarmi yoziladi.
6.	S _{bo'ksa}	Bo'ksa yarim aylanasi.	Santimetrli lenta dumba nuqtalaridan gorizental tarzda o'tib, qorin chizig'ining egilgan plastina yordamida hisobga olinadi va o'lchamning yarmi yoziladi.
7.	S _{hk}	Ko'krak kengligi	Santimetrli lentani ko'krak bezlari ustiga gorizental qo'yib, qo'ltiq chuqurligining old burchaklaridan ko'tarilgan vertikalgacha o'lchanadi va o'lchamning yarmi yoziladi.

8.	ShkII	2-ko'krak kengligi	Santimetrli lentani ko'krak ustiga gorizontaal qo'yib, qo'ltiq chuqurligining old burchaklaridan ko'tarilgan vertikalgacha o'lchanadi va o'lchamning yarmi yoziladi.
9.	Dort bel	Orqaning bel chizig'igacha bo'lgan uzunlik.	Bel chizig'idan bo'yin nuqtasigacha ko'kraklar chizig'iga qo'yilgan yupqa plastina ustidan umurtqa pog'onasi bo'yicha o'lchanadi.
10.	Dtp2	Old tomon bel chizig'igacha bo'lgan uzunlik.	Bo'yin nuqtasidan bo'yin asosi va ko'krak uchi nuqtasining usti orqali o'tib, o'rta sogittal chizig'iga parallel holda bel chizig'igacha o'lchanadi.
11.	VkII Sk (Sg)	Ko'krak balandligi va ko'krak bezlarining oralig'i.	Bo'yin nuqtasidan bo'yin asosi nuqtasi bo'ylab ko'krak uchi nuqtasigacha o'lchanadi. Bu o'lcham ikki ko'krak uchi oralig'i masofasidir.
12.	Vold.o'miz	Old o'mizining balandligi	Bo'yin nuqtasidan bo'yin asosi nuqtasi usti bo'ylab birinchi ko'krak aylanasi chizig'igacha o'lchanadi.
13.	Vort.o'miz	Orqa o'mizining balandligi	Ko'kraklar chizig'ini hisobga olgan holda bo'yin nuqtasidan birinchi va ikkinchi ko'krak aylanasing chizig'igacha bo'lgan masofa.
14.	Velka qiya	Yelkaning qiyalama balandligi	Bu masofa bel chizig'ining umurtqa pog'onasi bilan kesishish nuqtasidan yelkaning chetki nuqtasigacha o'lchanadi, santimetrli lenta tarang tortilib, ko'kraklardan diogonaliga o'tadi.
15.	Shorqa	Orqa kengligi	Ko'kraklar ustidan gorizontaal qo'ltiq chuqurligining burchaklaridan boshlab o'lchanadi. Bu o'lchamni kattalashtirib bo'lmaydi, aks holda yeng o'mizi tor bo'lib qoladi.
16.	Shelka	Yelka qiyaligining kengligi	Bo'yin asosi nuqtasidan yelkaning chetki nuqtasigacha o'lchanadi. Bu o'lchamni modaga qarab 1,0-1,5 sm ga kichraytirish yoki kattalashtirish mumkin.
17.	Oelka	Yelka aylanasi	Yelka o'qiga perpendikulyar bo'yicha o'lchanadi. Lentaning ustki cheti qo'ltiq chuqurligini orqa burchaklariga uruntirib, qo'l tashqi sathda biriktiriladi.

18.	Obilak	Bilak aylanasi	Bilak suyagini hisobga olgan holda o'lchanadi.
19.	Deng	Yeng uzunligi	Erkin holda tushirilgan qo'lda, yelka cheti nuqtasidan istalgan uzunlikkacha o'lchanadi.
20.	Dbuyum	Buyum uzunligi	7-umrtqa nuqtasidan bel chizig'igacha va undan istalgan uzunlikkacha o'lchanadi.



Qomatni o'lchash sxemasi.

Qo'shimcha va namunaviy o'lchamlar jadvali

O'lc ham	4 2	44	46	48	50	52	54	56	58	60
S _{bo'yin}	17,3	17,7	18,1	18,5	18,9	19,3	19,6	20	20,4	20,8
S _{kI}	41,4	42,9	44,4	45,9	47,4	48,9	50,5	51,9	53,3	54,7
S _{kII}	44,4	46,4	48,4	50,4	52,4	54,4	56,4	58,4	60,4	62,4
S _{kIII}	42	44	46	48	50	52	54	56	58	60
S _{bel}	31,7	33,8	35,9	38	40,1	42,2	45,3	47,7	50,1	52,5
S _{bo'ksa}	46	48	50	52	54	56	60	62	64	66
Sh _k	16,1	16,5	16,9	17,3	17,7	18,1	18,6	19	19,4	19,8
D _{ort bel}	42,6	42,7	42,8	42,9	43	43,1	43,2	43,3	43,4	43,5
D _{old bel}	42,6	43,2	43,8	44,4	45	45,6	45,9	46,6	47,3	48
V _k	24,6	25,4	26,2	27	27,8	28,6	29,6	30,6	31,6	32,6
V _{ort.o'miz}	20,6	20,9	21,2	21,5	21,8	22,1	22,5	22,8	23,1	23,4
V _{elka qiya}	42,3	42,6	42,9	43,2	43,5	43,8	44	44,3	44,6	44,9
Sh _{orqa}	16,8	17,3	17,8	18,3	18,8	19,3	19,7	20,2	20,7	21,2
Sh _{elka}	13	13,1	13,2	13,3	13,4	13,5	13,5	13,6	13,7	13,8
O _{elka}	26,1	27,5	28,9	30,3	31,7	33,1	34,7	35,8	36,9	38
O _{bilak}	15,6	15,9	16,2	16,5	16,8	17,1	17,5	17,8	18,1	18,4
D _{eng}	55	55,2	55,4	55,6	55,8	56	56,3	56,4	56,5	56,6

3-jadval.

Beldagi orqa o'rta chiziqni vertikal olib o'tish kattaligi (TT₁)

Siluet	Kattalik TT ₁ , sm da			
	Bel vitochkali	Bel vitochkasiz	Bel vitochkali	Bel vitochkasiz
To'g'ri	-	1	1	1,5
Sal yopishgan	1	1,5	1,5	2
Yopishgan	1,5	-	2	-

Eslatma: orqa o'rta chiziqqa vertikal TT₁ o'ng tomonga olib o'tiladi, chunki orqaning beldan past qismi chiroyli yopishishi uchun.

4-jadval.

Isitib turuvchi taglik uchun va qo'shimcha ko'krak chizig'i bo'yicha o'lcham P_k, PSh_{ort}, PSh_{old}

Isitib turuvchi taglik ko'rinishi	Qalinligi sm da	Qo'shimcha qo'shish kattaligi sm da		
		P _k	PSh _{orqa}	PSh _{old}
Vatin, sintepon 1-qavatda	0,3-0,4	0,9-1,3	0,15-0,25	0,15-0,25
Vatin, sintepon 2-qavatda yoki qalin sintepon 1 qavatda	0,6-0,8	1,9-2,6	0,35-0,5	0,35-0,5
Qaviqlangan paxta, mo'yna	1,0	3,2	0,6	0,6

O'tkazma yengli ayollar paltosining konstruksiya

chizmasini qurish

Standart namunaviy qomatli ayollar uchun: 96-razmerli, 164-bo'y, nim yopishgan siluetli palto konstruksiya chizmasini quramiz.

Agar qomat o'lchamlari namunaviy o'lchamlardan farq qilsa, u holda o'lchamlar individual qomatdan o'lchanadi. O'lchov olish qoidlari yuqorida keltirilgan.

5-jadval

$S_{bo'yin}$	18,5	PSh_{yoqa}	1,5	V_{kII}	27		
S_{kI}	45,9	$PV_{ort,yoqa.o'miz}$	0,4	V_{orqaII}	21,5	$P_{orqa o'miz}$	3,5
S_{kII}	50,4			$V_{elka qiya2}$	43,2	$PV_{elka qiya}$	1
S_{kIII}	48			Sh_{orqa}	18,3	PSh_{orqa}	1,8
S_{bel}	38	P_k	12	Sh_{elka}	13,3		
$S_{bo'ksa}$	52	P_{bel}	8	O_{elka}	30,3	PO_{elka}	12
Sh_k	17,3	$P_{bo'ksa}$	5	O_{bilak}	16,5		
$D_{ort belII}$	42,9	PSh_{old}	1,2	D_{eng}	55,6		
$D_{old belII}$	44,4	$PD_{orqa bel}$	1	TT_1	1,5	aa_2	14,1
		$PD_{old bel}$	1				

Hisob jadvalini soddalashtirish maqsadida quyidagi shartli belgilarni kiritamiz.

6-jadval

Belgi	Ma'nosi
↓	Pastga
↑	Yuqoriga
→	O'ngga
←	Chapga
(·)	Nuqta
⊥	Perpendikulyar

Namunaviy qomatdagi ayollar paltosining

chizmasini qurish

7-jadval

№	Shartli belgisi	Ta'rif	Hisob	Qiymat sm da
1.	2.	3.	4.	5.
Bazis to'rini qurish				
1.	A_0	Ayollar paltosining konstruksiyasini qurish uchun dastlab ort o'rta chizig'ini ifodolovchi vertikal, bo'yin o'mizini eng yuqori nuqtasini ifodolovchi gorizontal chiziq o'tkaziladi. Ular A_0 nuqtada kesishadi. Yuqoridan A_0 nuqtaga to'g'ri burchak qo'yiladi.		
2.	A_0U	<i>Kuraklar sohasi:</i> A_0 (·) dan ↓ U (·) belgilanadi.	$A_0U = 0,4 D_{orqa\ bel} 2 = 0,4 \times 42,9 = 17,2$	17,2
3.	A_0G	<i>Yeng o'mizi chuqurligi</i> (ko'krak chizig'i) A_0 (·) dan ↓ chiziq chiziladi, G (·) bilan belgilab, undan butun varaq bo'ylab gorizontal chiziq chiziladi.	$A_0G = V_{eng.o'miz} 2 + PD_{eng.o'miz} + 0,5 P_{orqa\ bel} = 21,5 + 3,5 + 0,5 = 25,5$	25,5
Eslatma: 50-razmerdan katta qomatlar uchun yeng o'mizi 0,5-1,0 sm ga chuqurlashtiriladi				
4.	A_0T	<i>Bel chizig'i o'rni:</i> A_0 (·) dan ↓ chiziladi. T (·) bilan belgilab, undan gorizontal chiziq o'tkaziladi.	$A_0T = D_{orqa\ bel} 2 + PD_{orqa\ bel} = 42,9 + 1 = 43,9\ sm$	43,9
	TB	<i>Bo'ksa chizig'i o'rni:</i> T (·) dan ↓ chiziladi. B (·) bilan belgilanadi va undan gorizontal chiziq o'tkaziladi.	$TB = D_{orqa\ bel} 2/2 - 2 = 19,5\ sm$	19,5
5.	TT_1	<i>Ort o'rta chizig'ini bel</i>	$TT_1 = 1,5\ sm$	1,5

		<i>chizig'iga o'tkazish:</i> T(·) dan → chiziladi. A ₀ va T ₁ nuqtalarni birlashtirib, etak chiziqqacha davom ettiriladi.		
6.	A ₀ a ₁	<i>Ko'krak chizig'i bo'yicha kiyim kengligi</i> (bazis to'ri kengligi) A ₀ (·) dan → chiziladi, a ₁ (·) pastga vertikal chiziladi va gorizontal chiziq bilan kesishgan (·) da G ₃ , T ₃ , B ₃ (·) qo'yiladi.	$A_0a_1 = S_k3 + P_k + G_k = 48 + 12 + 0,5 = 60,5 \text{ sm}$ $A_a a_1 = S_k3 + P_k \text{ (agar } TT_1 = 0)$	60,5
7.	A ₀ a	<i>Ort bo'lak kengligi:</i> A ₀ (·) dan → chiziladi.	$A_0a = Sh_{orqa} + PSh_{orqa} = 18,3 + 1,8 = 20,1 \text{ sm}$	20,1
8.	a ₁ a ₂	<i>Old bo'lak kengligi:</i> a ₁ (·) dan ← chiziladi.	$a_1 a_2 = Sh_k + PSh_{old} + (S_k2 - S_k1) = 17,3 + 1,2 + 4,5 = 23 \text{ sm}$	23
9.	aa ₂	<i>Yeng o'mizi kengligi:</i> Yeng o'mizi kengligini konstruktsiyadan o'lchash mumkin. O'lchangan qiymatni 7-jadval bilan solishtirib ko'riladi va agar undan kichik bo'lsa, qiymatni jadvaldagiga mos kelguncha kengaytiriladi. a(·) dan ko'krak chizig'igacha ↓ tushiriladi, kesishgan (·) G ₁ (·) bilan belgilanadi. a ₂ (·) dan ko'krak chizig'iga ↓ chiziq tushiriladi va kesishish (·) G ₄ bilan belgilanadi.	$aa_2 = A_0a_1 - (A_0a + a_1a_2) = 60,5 - (20,1 + 23) = 17,4 \text{ sm}$	17,4
10.	G ₁ G ₂	<i>Yeng o'mizining o'rtasi</i> G ₂ (·) dan etak chizig'iga ↓ vertikal tushiriladi.	$G_1G_2 = G_1G_4 : 2 = 8,7 \text{ sm}$	8,7
Ort bo'lak chizmasini qurish				
11.	A ₀ A ₂	Ort bo'lak yoqa o'mizi	$A_0 A_2 = 1/3 S_{bo'ysin} + P_{yoqa o'miz} + (0,5 \dots 1)$	8,2

		kengligi. $A_0 (\cdot)$ dan \rightarrow chiziladi va $A_2 (\cdot)$ bilan belgilanadi.	$= 6,2 + 1,5 + 0,5 = 8,2$ sm. Eslatma: 44-52 razmerlar uchun 0,5 sm, 54-68 razmerlar uchun 1 sm qo'yiladi	
12.	A_0A	<i>Ort bo'lak yoqa o'mizi chuqurligi.</i> $A_0 (\cdot)$ dan pastga $A (\cdot)$ bilan belgilanadi.	$A_0A = 1/3 A_0A_2 + PV_{yoqa o'miz} = 2,7 + 0,4 = 3,1$ sm	3,1
13.	AN_1	<i>Kiyim uzunligi:</i> $A (\cdot)$ dan \downarrow chiziladi.	$AN_1 = D_{buyum} + PD_{orqa,bel} = 110+6 = 116,0$ sm Eslatma: amaliyotda yubka uzunligi bel chizig'idan boshlab quriladi	116,0
	A_2P_1 T_1P_1	<i>Yelkaning chetki nuqtasi:</i> $A_2 (\cdot)$ dan, A_2P_1 ga teng yoy chiziladi. $T_1 (\cdot)$ dan birinchi yoyga teng yoy o'tkaziladi va kesishish (\cdot) da $P_1 (\cdot)$ belgilanadi. A_2 va $P_1 (\cdot)$ lar birlashtiriladi.	$A_2P_1 = Sh_{elka} + 2,5$ sm (vitochka) + 0,5 (posadka) = 13,3 + 2,5 + 0,5 = 16,3 sm. $T_1P_1 = V_{elka qiya}^2 + PV_{elka qiya} + (\text{elka yostiqchasi qalinligi}) = 43,2 + 1+1 = 45,2$ sm	16,3 45,2
Eslatma: 1) Agar $TT_1=0$ bo'lsa, unda ikkinchi yoyni $V_{elka qiya}^2+PV_{elka qiya}+(\text{elka yostiqchasi})$ ni $T (\cdot)$ dan o'tkaziladi. 2) Agar model bo'yicha yelka yostiqchasi 1,5-3 sm qalinlikda bo'lsa, unda ort bo'lak yelka vitochkasi qurilmaydi, A_2P_1 yoy $Sh_{elka} + 0,5$ (posadka) ga teng, ya'ni $A_2P_1 = Sh_{elka}+0,5$				
14.	A_2A_{21}	<i>Yelka vitochkasini qurish:</i> $A_2 (\cdot)$ dan o'ngga, yelka chizig'i bo'ylab 4,5 sm chiziladi va 2,5 sm vitochka kengligiga (9-jadval bo'yicha), 7-10 sm vitochka uzunligiga qo'yiladi. Vitochka	$A_2A_{21} = 4,5$ sm $A_{21}A_{23} = A_{22}A_{23}$	4,5

		uchlarini birlashtirib, yelka kengligi yopiq vitochka holida yetkaziladi (oxirigacha chizib).		
--	--	---	--	--

Ort bo'lak yelka vitochkasining kattaligi

8-jadval

Gazlama tarkibi	Qomat turlari		
	Kekkaygan	Normal	Bukchaygan
Yumshoq va titiluvchan	1,5 – 2,0	2,-2,5	2,5-3
Qattiq va quruq	1,0 – 1,5	1,5 – 2,0	2,0 – 2,5

«Ayollar paltosi uchun model tanlash, o'lchov olish va asos konstruksiya chizmasini chizish» bo'yicha texnologik xarita

Texnologiya asosida faoliyat turlari	Chizma	Standart asosida operatsiyani bajarish tartibi
I. Ayollar paltosi uchun model tanlash, o'lchov olish,		
1.1. Ayollar paltosi haqida asosiy tushunchalarni o'zlashtirish.	Ma'lumotnomaning 1-3 betlarida keltirilgan.	O'quvchilarga ayollar paltosi haqida asosiy tushunchalar beriladi. Ular palto assortimenti, silueti, bichimi, tavsiya etiladigan gazlama turlari va h.k. haqida qisqacha ma'lumotlar bilan tanishadilar.
1.2. Moda jurnallarini ko'rib chiqish va tahlil qilish.		Ustaxonada mavjud bo'lgan yoki kutubxonada moda jurnallarini ko'rib chiqadilar va tahlil qiladilar.
1.3. Palto uchun gazlama tanlash.		O'quv ustaxonasida mavjud gazlama namunalari kattaligidan foydalanib yoki savdo shaxobchalarida xaridorlarga taklif etilgan gazlamalarni o'rganib, o'zi uchun maqbul gazlama tanlanadi. Gazlama namunalari albatta usta bilan kelishiladi.

1.4.Palto modelini tanlash.		O'quvchilar jurnal yoki boshqa manbalar orqali palto modelini tanlaydilar va uni ustaga ko'rsatadilar.
1.5.Palto modelining ort va old ko'rinishini texnik chizmasini chizish.		Paltoning old va ort tomondan tashqi ko'rinishi chizib olinadi va uni usta tasdiqlab beradi.
1.6.Palto tashqi ko'rinishiga yozma tavsif berish.		Misolga qaralsin.
1.7.Palto chizmasini chizish uchun o'lchov olish.		Har bir o'quvchi o'ziga berilgan razmga mos ravishda o'lchov belgilari qiymatini tanlaydi. O'lchovlar 1,2-jadvallarda berilgan. Namunaviy qomatlar uchun razmer o'lchovlari qiymatidan tanlab olinadi. Aniq qomat o'lchovlari namunaviydan farq qilgan holda o'lchov qiymatlari shu qomatdan o'lchanadi.
II. Ayollar paltosining old va ort bo'lagini qurish		
2.1. Palto bazis to'rini qurish.		<p>Palto bazis to'ri chizmasi 9-jadvaldan foydalanib chiziladi.</p> $A_0U = 0,4 D_{\text{orqa bel } 2} = 0,4 \cdot 42,9 = 17,2$ $A_0G = V_{\text{orqa o'miz} 2} + PS_{\text{eng o'miz}} + 0,5$ $PD_{\text{orqa bel}} = 21,5 + 3,5 + 0,5 = 25,5$ $A_0T = D_{\text{orqa bel } 2} + PD_{\text{orqa bel}} = 42,9 + 1 = 43,9$ $TB = D_{\text{orqa bel } 2} / 2 - 2 = 19,5 \text{ sm}$ $TT_1 = 1,5 \text{ sm}$ $A_0a_1 = S_k 3 + P_k + G_k = 48 + 12 + 0,5 = 60,5 \text{ sm}$ $A_a a_1 = S_k 3 + P_k \text{ (agar } TT_1 = 0)$ $A_0a = Sh_{\text{orqa}} + PSh_{\text{orqa}} = 18,3 + 1,8 = 20,1 \text{ sm}$ $a_1 a_2 = Sh_k + PSh_{\text{old}} + (S_k 2 - S_k 1) = 17,3 + 1,2 + 4,5 = 23 \text{ sm}$ $G_1 G_2 = G_1 G_4 : 2 = 8,7 \text{ sm}$

<p>2.2. Ort bo'lak chizmasini qurish.</p>		<p> $A_0 A_2 = 1/3 S_{bo'yin} + PSh_{yoqa o'miz} + (0,5 \dots 1) = 6,2 + 1,5 + 0,5 = 8,2 \text{ sm.}$ $A_0 A = 1/3 A_0 A_2 + PV_{yoqa o'miz} = 2,7 + 0,4 = 3,1 \text{ sm}$ $AN_1 = D_{buyum} + PD_{orqa bel} = 110 + 6 = 116,0 \text{ sm}$ $A_2 P_1 = Sh_p + 2,5 \text{ sm (vitochka)} + 0,5 \text{ (posadka)} = 13,3 + 2,5 + 0,5 = 16,3 \text{ sm.}$ $T_1 P_1 = V_{pk2} + P_{elka.qiya} + (\text{elka yostiqchasi qalinligi}) = 43,2 + 1 + 1 = 45,2 \text{ sm}$ $A_2 A_{21} = 4,5 \text{ sm}$ </p>
<p>2.3. Yelka vitochkasini qurish.</p>		<p> $A_2 (\cdot)$ dan o'ngga, yelka chizig'i bo'ylab 4,5 sm chiziladi va 2,5 sm vitochka kengligiga (9-jadval bo'yicha) 7-10 sm vitochka uzunligi qo'yiladi. Vitochka uchlarini birlashtirib, yelka kengligi yopiq vitochka holida oxiriga yetkaziladi. </p>
<p>2.4. Yeng o'mizining nazorat nuqtasi.</p>		<p> $G_1 P_3 = 1 / 3 G_1 P_2 + 2 \text{ sm}$ b) $P_3 P_{31}$ ort bo'lakning $P_3 (\cdot)$ vertikalidan og'ishiga teng. $G_1 1 = 0,2 G_1 G_4 + 0,5 = 0,2 \cdot 17,4 + 0,5 = 3,98 \text{ sm}$ </p>
<p>2.5. Old bo'lak chizmasini qurish.</p>		<p> $G_3 G_6 = 1 / 2 G_3 G_4 - 0,5 \text{ sm}$ (mavsumbop palto uchun) $G_3 G_6 = S_k + 0,5 \text{ sm}$ (agar S_k qo'shimcha o'lchov bo'yicha) </p>
<p>2.6. Old bo'lak bo'yin o'mizi cho'qqisini (balans) topish.</p>		<p> $T_3 A_3 = D_{old.bel} 2 + PD_{old.bel} + (1,5 - 2,5) - \text{mavsumbop paltolar uchun.}$ $T_3 A_3 = D_{old.bel} + PD_{old.bel} + 2,5 - \text{«shol» yoqali qishki paltolar uchun}$ $A_3 A_{31} = 0,5 \text{ sm}$ (namunaviy qomatlar uchun) $A_3 A_{31} = 1 - 1,5 \text{ sm.}$ (aniiq qomatlar uchun) $A_3 A_{31} = 0$ (bukchaygan) </p>
<p>2.7. Old bo'lak bo'yin o'mizini qurish.</p>		<p> $A_{31} A_4 = 1 / 3 S_{bo'yin} + PSh_{yoqa.o'miz} = 18,5 : 3 + 1,5 = 7,7 \text{ sm}$ $A_{31} A_5 = A_{31} A_4 + 1 \text{ sm} = 7,7 + 1 = 8,7 \text{ sm.}$ </p>

2.8. Ko'krak vitochkasini qurish.	$A_4G_7 = V_{g2} = 27 \text{ sm}$ $A_4A_9 = 2 (S_{g2} - S_{g1}) + 2 = 2 (50,4 - 45,9) + 2 = 10,6 \text{ sm}$
2.9. Old bo'lak yeng o'mizini qurish.	$G_4P_4 = G_1P_2 - 1 \text{ sm}$ $G_4P_6 = 1 / 3 G_4P_4$ $P_6P_{61} = 0,6$ $A_9 P_5 = Sh_p = 13,3$ $P_{61}P_5 = P_{61}P_4$ $P_53 = 1/2 P_5P_6 \quad 3 - 4 = 0,3 - 0,8 \text{ sm } P_5P_6$ \perp $G_42 = G_1 \quad 1 - 0,5$ $A_9A'_9 = 5-6 \text{ sm}$
2.10. Palto etak chizig'ini qurish.	$T_3N_3 = T_1N_1$
2.1. Yon chok holatini aniqlash, bel chizig'i.	$T_3N_{31} = T_1N_1 + 1 \text{ sm}$ adipga ishlov berish uchun

Andozalarni gazlamaga joylash va bichish

O'tqazma yeng asos konstruktsiyasini palto ort va old bo'lagi AK chizmasi asosida quriladi.

Yeng qiyamasining o'miz bilan tutashmasini tekshirish uchun, old bo'lak asos konstruktsiyasida P_1 nuqtadan P_5 nuqttagacha bo'lgan masofa o'lchanib, uning vertikal diametri o'lchanadi.

Yeng o'mizining vertikal diametri va yeng qiyamasi balandligi old va ort bo'lak konstruktsiyasidan bevosita o'lchanadi. Formulalar va o'zgarmas kattaliklar hamma razmerlar uchun bir xildir, agar matnda qo'shimcha o'zgarishlar keltirilmagan bo'lsa.

Yeng asos konstruksiyasini qurish

9-jadval

Yeng bazis to'ri qurish				
1.	OO_1	<p>Yeng o'zining vertikal diametri.</p> <p>Asos konstruksiyasida P_1 va P_5 nuqtalar to'g'ri chiziq bilan tutashtiriladi va bu chiziqning o'rtasida $O(\cdot)$ belgilanadi. $O(\cdot)$ dan ko'krak chizig'iga vertikal chiziq tushiriladi va $O_1(\cdot)$ belgilanadi.</p>		
2.	O_1O_2	<p>Yeng qiyamasi balandligi $O(\cdot)$ dan $\downarrow 1...2,5$ sm o'lchab, $O_2(\cdot)$ bilan belgilanadi. O_1O_2 - yeng qiyamasi balandligi.</p>	<p>$O_1O_2 = OO_1 - (1-2,5)$ razmerga qarab.</p> <p>44 - 46 razmer uchun 2,5 sm</p> <p>48 - 50 razmer uchun 2,0 sm</p> <p>52 - 54 razmer uchun 1,5 sm</p> <p>56 - razmer va undan katta razmerlar uchun 1 sm</p>	
3.	Sh_{ruk}	<p>Tayyor buyumda o'z osti yeng kengligi. Vertikal chiziq o'tkazib, unda yeng qiyamasi balandligi, O_1O_2 o'lchami qo'yiladi. $O_1(\cdot)$ dan gorizontal to'g'ri chiziq o'tkaziladi, unda keyinchalik yeng kengligi o'lchami qo'yiladi. P_{op} kattaligi 2-jadvaldan olinadi.</p>	<p>$Sh_{eng} = (O_{elka} + PO_{elka}) : 2$ $= (30 + 12) : 2 = 21$</p>	21
4.	O_1R_p	<p>Old va tirsak chiziqlari holati. O_1 nuqtadan o'ng va chap tomonga R_p va R_l</p>	<p>$O_1R_p = O_1R_l = (O_{elka} + PO_{elka}) : 4 = (30 + 12) : 4 = 10,5$</p>	10,5

		nuqtalari qo'yiladi. R_p va R_1 nuqtalardan yuqoriga vertikal chiziq chizib, O_3O_4 nuqtalar bilan belgilanadi.		
5.	O_3M	Yeng uzunligi. O_3 nuqtadan pastga.	$O_3M = D_{eng} - 1 \text{ sm} = 55,6 - 1 = 54,6$	54,6
6.	O_3L	Tirsak chizig'i holati, O_3 nuqtadan pastga M va L nuqtalardan gorizontal chiziq o'tkaziladi.	$O_3L = 1 / 2 D_{eng} + 3 \text{ sm} = 55,6 : 2 = 30,8$	30,8
7.	LL_1	Tirsak chizig'idagi buklov. L nuqtadan. Old buklov (perekat) R_p , L_1 , M nuqtalar orqali o'tadi.	$LL_1 = 1 \text{ sm}$ $LL_1 = 0,5 \div 0,7$ Eslatma: namlab-isitib ishlov berish qiyin bo'lgan gazlamalar uchun	
8.	MM_1	Yeng uchi kengligi. M nuqtadan ←.	$MM_1 = (O_{bilak} + PO_{bilak}) : 2 = 14,25$ Yeng uchi kengligi model bo'yicha tanlanadi.	14,25
9.	M_1M_2	Yeng uchi qiyaligi. M_1 nuqtadan pastga. M_1 va M_2 nuqtalar tutashtiriladi. R_1 va M_2 nuqtalarni birlashtirib, tirsak chizig'ida L_2 nuqta belgilanadi.	$M_1M_2 = 1,5 - 2 \text{ sm}$	14,25
10.	L_2L_3	Tirsak chizig'ini buklovi. L_2 nuqtadan chapga. Tirsak buklov chizig'i R_1 , L_3 va M_2 nuqtalardan o'tadi.	$L_2L_3 = 1,5$	1,5
1	2	3	4	5
11.	1) R_p1	R_p (·) dan ↑	1) $R_p1 = G4 P6$ (o'miz chizmasidan R_p (·) dan o'lchanadi.	

	2) R1 R3	R1 (·) dan ↑	2) R1R3 = G1P3 (o'miz chizmasi Rp (·) dan yuqoriga o'lchanadi.	
	3) nazorat kertiklar	1 (·) dan →	1 - 1' = 1,5 sm	
		R3 (·) dan ←	R3R3' = 1,5 sm.	
	4) O2O6	O2 (·) dan ←	O2O6 = O2 O4 : 2	
	5) O3O5	O3 (·) dan ←	O3O5 = (O2O3) : 2 - 2 O5 va 1 '(·) lar O6 va R'3 (·) lar birlashtiriladi.	
	6) O52	O5 o'tmas burchak bissektrisasi bo'ylab.	O52 = 2 sm	
	7) O63	O6 burchak bissektrisasi bo'ylab.	O63 = 1 sm Yeng qiyamasi O2, 3, R'3 va O2 2, 1' (·) lar orqali birlashtiriladi.	
12.	O2O21	O2 nuqtadan o'ngga nazorat kertigi.	O2O21 = 0,7 sm	0,7
Eslatma: Bichish vaqtida ushbu nuqtada ozgina qirqim beriladi, yengni yeng o'miziga biriktirish vaqtida, ushbu nazorat kertigi yelka qirqimiga mos kelishi shart.				
13.	Yeng qiyamasi pastki qismini chizish.	1) 1 (·) dan ←	1-1'' = 1,5	
		2) R3 (·) dan →	R3R3'' = 1.5 cm	
		3) Rp (·) dan ←	RpG2=G2 G4 + 0,5 (G2G4 chizmadan olinadi).	
		4) 4 (·) dan ↓ perpendikulyar bo'yicha.	4 - 5 = 1 - 2 sm	
		5) Rp (·) dan bissektrisa bo'ylab ←	Rp 8 = G4 2 + 0,5 Yeng qiyamasi 1', 8, G2,5, R'3 (·) lar orqali o'tadi	
Tirsak qirqimida vitochkali bir chokli yeng				
14.	O1R1	Yengni biriktiruvchi chok	O1R1 = O1Rp	

	L_3L_{21} M_2M_{11}	holati tekshiriladi. $O_1 L_{21}$, M_{11} lar birlashtiriladi.	$L_3L_{21} = L_3L_1 : 2$ $M_2M_{11} = M_2M : 2$	
15.	R_pR_1	Old qiyamasi bo'yicha yeng yoyilmasi. $R_p (\cdot)$ dan \rightarrow	$R_pR_1 = R_pO_1$	
	L_1L_{22}	$L_1 (\cdot)$ dan \rightarrow	$L_1L_{22} = L_1L_{21}$	
	MM_3	$M (\cdot)$ dan \rightarrow	$MM_3 = MM_{11}$	
	$M_9 M_{31}$	$M_3 (\cdot)$ dan \downarrow	$M_3M_{31} = 0,5$	
		$R_1, L_{22}, M_{31} (\cdot)$ lar birlashtiriladi.		
16.	R_1R_2	Tirsak buklovi bo'yicha yeng yoyilmasi. $R_1 (\cdot)$ dan \leftarrow	$R_1R_2 = R_1O_1$	
	L_3L_{41}	$L_3 (\cdot)$ dan \leftarrow	$L_3L_{41} = L_3L_{21}$	
	M_2M_4	$M_2 (\cdot)$ dan \leftarrow	$M_2M_4 = M_2M_{11}$	
		R_2, L_{41}, M_4 nuqtalar birlashtiriladi. R_1 nuqtadan chapga R_1L_3 ga perpendikulyar o'tkazib R_{21} nuqta belgilanadi.		
17.	$R'36$	$R'3 R_{21}$ chiziqqa \downarrow perpendikulyar $R'3, 7, R_{21}$ nuqtalar birlashtiriladi.	$R'36 = R'3 R_{21} : 2$ $6 - 7 = 1 \text{ sm.}$	
18.		Tirsak vitochkasini qurish: L_3 nuqtadan $L_3 M_2$ chiziqqa chapga perpendikulyar o'tkazib L_{42} nuqta belgilanadi. Vitochka uchlari tenglashtirilib L_{42} va M_4 nuqtalar birlashtiriladi. Vitochkani chizishda buklovga 1,5-2,0 sm yetkazmay qisqartiriladi.		

Yeng qurishda O_p o'lchamga qo'shimcha

Yeng shakli to'g'risida ma'lumot	Qo'shimcha kattaligi P_{op} sm da
	Palto
<i>Yopishib turadigan</i>	5 – 7
<i>Tor</i>	7 – 9
<i>O'rta</i>	9,5 – 12
<i>Kengaytirilgan</i>	12 – 14
<i>Keng</i>	14,5 – 17

Eslatma: to'liq qo'lli qomat uchun $P_{0_{elka}}$ ning kichik qo'shimchasini olish kerak.

Tikish usullari va uskunalarni tanlash.

Paltoni konstruktiv modellash AK chizmasida yoki boshqa BK chizmasida bajariladi.

Ort bo'lakda relief choklarining holati va o'rta chiziqda shlitsa loyihalanadi.

Ort bo'lak yelka choki va yeng o'mizi chizig'i bo'yicha bir oz kengaytiriladi. O'miz chuqurligi 1,0...2,5 sm dan oshmasligi kerak.

Ort yelka vitochka qiymati teng ikkiga bo'linib, 1/2 qismi yeng o'miziga o'tkaziladi. Bu kattalik ort yeng o'mizini uzaytirish uchun beriladi. Yelka vitochkaning qolgan 1/2 qismi holati (o'rni) yana bir bor model eskiziga qarab aniqlanadi. Relief choklari vitochka tomonlaridan o'tgani uchun, eskizga mos ravishda vitochka o'rni yelka tomonga 1,0...2,0 sm ga ko'chiriladi. Bunda vitochka uchlari kurakka qaratilishi shart.

Relief chizig'i yelka va bel vitochkalari qiymatini hisobga olgan holda vitochkalar o'ng va chap tomonlaridan tushiriladi va etakkacha konus kengaytirish yordamida davom ettiriladi.

Relief chizig'i holatini aniqlash model eskizi bo'yicha bajarilib, unga to'la mos bo'lishi shart. Etak qismini kengaytirish darajasi tanlangan gazlama xususiyatlariga (draplanuvchanlik va qattqlik) bog'liq. Relief chiziqlari bel

vitochkalari o'zni bilan mos tushmasligi mumkin. Birikuvchi yonma-yon bo'laklar relief chiziqlari shakli ko'krak uchastkasidan bo'ksagacha bo'lgan oraliqda bir xil yoki farq qilishi mumkin. Lekin har qanday holda ham birikuvchi bo'laklar qirqimlarining uzunliklari o'zaro teng bo'lishi uchun tekshiriladi.

Ort bo'lak yon chizig'ini (qirqimini) modellashtirish uchun beldan etakkacha konus kengaytirish bajariladi. Etak chizig'i o'zni yana bir bor aniqlab olinadi.

Ort yon bo'lakning yelka uchastkasida koketka chizig'i holati aniqlanadi, u kesib olinadi.

Ko'rib chiqilayotgan model yeng o'mizi namunaviydan chuqurroq va yeng o'miz chuqurligi sathida bir oz kengaytirilgandir. Shuning uchun old va ort bo'laklar yeng o'mizi chuqurlashtiriladi. Shlitsa uzunligi model eskizi bo'yicha aniqlanib, kengligi 5 sm dan kam bo'lmasligi kerak.

Old bo'lakni modellashtirish - ko'krak vitochkasini ko'chirishdan boshlanadi. Ort bo'lak koketkasining yelka chok uzunligiga teng masofa P_5 nuqtadan yelka chok bo'ylab qo'yiladi va relief chizig'i o'zni aniqlanadi. Vitochka ko'chiriladi. Ko'krak vitochkasining yangi holatidan va bel vitochkasi tomonlaridan old relief chok loyihalashtiriladi. Yon qirqim va relief chizig'ining beldan etakkacha oralig'ida konus kengaytirish bajariladi. Old va yon bo'laklar relief chizig'i uzunliklari tekshiriladi va tenglashtiriladi.

Asosiy bo'laklarga ishlov berish.

Texnologik ketma – ketlik tuzish

Old yeng o'mizi ham huddi ort bo'lakdagi kabi chuqurlashtirilib yangi o'miz chizig'i o'tkaziladi.

Old yon bo'lak yon qirqimining shakli ort yon bo'lak shakli va uzunligi bo'yicha muvofiqlashtiriladi. Old yon bo'lakda koketka chizig'i holati belgilanib, qirqib olinadi. Koketka kattaligi ort koketkaga teng.

Old bo'lakda bort chizig'i holati aniqlanadi. Bort kengligi bir bortli paltolarda bezak baxyaqator mavjudligiga va tugma diametriga bog'liq.

Palto guruhidagi bir bortli kiyimlarda bort kengligi 3 . . . 4,5 sm, ikki bortli kiyimlarda bort kengligi 8 . . . 10 sm. Palto tugma va izmalari o'rni ko'pincha bel, bo'ksa, cho'ntaklar o'rni bilan muvofiqlashtiriladi. Izmalar o'rni har qanday holda ham model eskiziga mos qilib belgilanadi. Agar bort chetida bezak baxyaqator bo'lsa, izma bort chizig'i tomonga 0,3 0,5 sm ga suriladi.

Old o'rta bo'lak relief chizig'ida cho'ntak o'rni loyihalanadi. Cho'ntak chokda joylashgani uchun cho'ntak og'zi kattaligi ikkita kertik bilan belgilanadi. Cho'ntak og'zi kattaligi 16 . . . 17 sm.

Yengni modellash.

Palto yengining model konstruksiyasi bir chokli yeng asos konstruksiyasi asosida chiziladi. Buning uchun asos konstruksiyadan nusxa ko'chiriladi.

Palto yengi koketka bilan yaxlit bichilgan bo'lgani uchun uni konstruktiv modellash bir necha bosqichda bajariladi:

- eng qiyamasi balandligini o'zgartirish va tirsak vitochkasini yopish;
- eng o'rta chokini modellash;
- koketka bilan bichilgan yaxlit yengni modellash.

Yeng qiyamasi balandligi old va ort bo'lak yeng o'mizi chuqurlashuvi hisobiga 0,5 . . . 1,5 sm gacha ko'tariladi

Yeng qiyamasini ko'tarish uchun orqa qiyamada **a** nuqta belgilanadi va undan old qiyama tomonga to'g'ri chiziq o'tkaziladi. (**b** nuqta). Yeng **a** – **b** chiziq bo'yicha qirqib, yeng qiyamasining yuqori qismi ko'tariladi. Yeng o'mizi chuqurlashuvi va yengning kengayishi hisobiga uning shakli va konstruksiyasi o'zgaradi, tirsak vitochkasiga zaruriyat qolmaydi. Yeng chizmasida tirsak vitochkasi yopiladi. Tirsak vitochkasi qiymatining 1/2 qismi yeng qiyamasiga va qolgan 1/2 qismi yeng uchiga ko'chiriladi. Agar yeng qiyama bo'yicha kengayib

ketadigan bo'lsa, uning tirsak qismi va o'rta qismi bir-biri ichiga T nuqtada 1,5 sm gacha kirishtiriladi (toraytiriladi). T' lekin yangi yeng tirsakda tor bo'lib qolmasligi kerak. Aks holda T nuqta joyida qoladi. Yeng qiyamasining yangi holati chiziladi.

Old, ort bo'laklardan iborat ikki chokli yengni qurish uchun old va ort bo'lak chizmasidan yeng o'mizi uzunligi o'lchanadi. Yangi yengning qiyamasining uzunligi o'miz uzunligi bilan solishtiriladi.

$$D_{\text{qiyama}} - D_{\text{o'miz}} = K$$

Bu yerda: D_{qiyama} – yeng qiyamasi uzunligi;

$D_{\text{o'miz}}$ – old va ort bo'lak yeng o'mizi uzunligi.

K – kattalik yeng qiyamasini kichraytirish (posadka) miqdorini xarakterlaydi.

$$O_2O_{21} = O_2O_{22} = K / 2 = 1,0 \dots 2,5 \text{ sm.}$$

O_1 nuqtadan o'ng va chapga 1,0 sm dan qo'yiladi va O_{11} va O_{12} nuqtalar belgilanadi.

O_{21} , O_{11} , M_{11} nuqtalar egri chiziq bilan mayin birlashtiriladi va yeng old bo'lagi o'rta chizig'i chiziladi.

Ort bo'lak o'rta chizig'ini chizish uchun yeng uchida yeng tirsak vitochkani yopishdan hosil bo'lgan pastki vitochka kattaligiga teng miqdorda ort bo'lak o'rta choki chap tomonga suriladi. Ort yeng o'rta chizig'i O_{22} , O_2 va M_{22} nuqtalardan o'tadi.

Old va ort bo'lak chizmasidan old va ort koketkalar qirqib olinadi. So'ngra ort koketka O_{22} nuqtasiga o'miz chizig'i qiyamasi ustiga yotqizilgan holda qo'yiladi. Old koketka yelka nuqtasi O_{21} nuqtasi ustiga tushiriladi. Koketka konturlari chizib olinadi. Yangi yeng konturlari holati aniqlab olinadi.

Ayollar paltosi yoqasining chizmasini chizish

Ayollar paltosining yoqasi qaytarma yoqa bo'lib, taqilmasi yuqorigacha. Palto yoqasi chizmasini chizish uchun quyidagi dastlabki ma'lumotlar kerak bo'ladi:

- old va ort bo'lak bo'yin o'mizi uzunligi ($l_{bo'y}$);
- yoqa o'rtasini ko'tarish qiymati;
- model bo'yicha yoqa kengligi;
- model bo'yicha yoqa uchi shakli.

Bo'yin o'mizi uzunligi old va ort bo'lak model konstruktsiyasi chizmasidan (4-rasm) metal lineyka vositasida o'lchanadi. Yoqa o'rtasini ko'tarish qiymati yoqaning bo'yinga yopishib turish darajasiga bog'liq. Bo'yinga juda yopishib turuvchi yoqalar uchun bu qiymat 1,5 . . . 3,0 sm; o'rtacha yopishib turdigan yoqalarda – 4,0 6,0 sm; bo'yinda bermalol turadigan yoqalar uchun – 7,0 12,0 sm ni tashkil etadi;

Yoqani o'mizga ulash chizig'ini qurish uchun O nuqtada to'g'ri burchak chiziladi. O nuqtadan yuqoriga vertikal bo'ylab OV qiymat qo'yiladi.

$$OV = 3,0 - 4,0 \text{ sm}$$

O nuqtadan o'ngga gorizontal chiziq chiziladi va uni V nuqtadan o'tgan VA radius bilan kesiladi, hosil bo'lgan nuqta – A bilan belgilanadi.

$$VA = D l_{bo'y} - a; \quad a = 0,5 \dots 1,5 \text{ sm}$$

A va V nuqtalar to'g'ri chiziq bilan birlashtiriladi. AV bo'lak yarmida birinchi va ikkinchi nuqtalar qo'yiladi.


$$(V-1) = VA / 2$$

$$1-2 = 1,0 - 2,5 \text{ sm}$$

Bo'yin o'miziga ulash uchun egri chiziq A, V va 2 nuqtalardan o'tadi. Yoqa qaytarmasi modelga mos ravishda quriladi.

«Ayollar mavsumiy paltosi uchun yeng va yoqani loyihalash» bo'yicha texnologik xarita


Texnologiya asosida faoliyat turlari	Chizma	Standart asosida operatsiyani bajarish tartibi
I. Yeng asos konstruktsiyasini qurish		
1.1. Yeng konstruktsiyasini qurish uchun o'lchamlar tanlash.		<p>Yeng o'mizining vertikal diametri. Asos konstruktsiyasida P_1 va P_5 nuqtalar to'g'ri chiziq bilan tutashtiriladi va bu chiziqning o'rtasida $O(\cdot)$ belgilanadi. $O(\cdot)$ dan ko'krak chizig'iga vertikal chiziq tushiriladi va $O_1(\cdot)$ belgilanadi.</p>
1.2. Yeng qiyamasining bazis to'rini qurish.		<p>Yeng bazis to'ri 10-jadvaldan quriladi.</p> <p>$O_1O_2 = 0O_1 - (1-2,5)$ razmerga qarab.</p> <p>44 – 46 razmer uchun 2,5 sm 48 – 50 razmer uchun 2,0 sm 52 – 54 razmer uchun 1,5 sm</p> <p>56 – razmer va undan katta razmerlar uchun 1 sm</p> <p>$Sh_{eng} = (O_{elka} + PO_{elka}) : 2 = (30 + 12) : 2 = 21$</p> <p>$O_1R_p = O_1R_1 = (O_{elka} + PO_{elka}) : 4 = (30 + 12) : 4 = 10,5$</p> <p>$O_3M = D_r - 1 \text{ sm} = 55,6 - 1 = 54,6$</p> <p>$O_3L = 1 / 2 D_r + 3 \text{ sm} = 55,6 : 2 + 3 = 30,8$</p> <p>$LL_1 = 1 \text{ sm}$</p> <p>$MM_1 = (O_{elka} + PO_{elka}) : 2 = 14,25$</p> <p>M nuqtadan chapga. Yeng uchi kengligi model bo'yicha tanlanadi.</p> <p>$M_1M_2 = 1,5 - 2 \text{ sm}$</p>
1.3. Yeng asos konstruktsiyasini qurish.		<p>Tirsak chizig'ining buklovi. L_2 nuqtadan chapga. Tirsak qiyamasi R_1, L_3 va M_2 nuqtalardan o'tadi.</p> <p>$R_p1 = G_4P_6$ $R_1R_3 = G_1P_3$ $O_2O_6 = O_2O_4 : 2$ $O_3O_5 = (O_2O_3) : 2 - 2$</p> <p>$O_5$ va $1'$ nuqtalar, O_6 va R_3 nuqtalar</p>

		<p>birlashtiriladi. $O_5 2 = 2 \text{ sm}$, $O_6 3 = 1 \text{ sm}$. Yeng qiyamasi $O_2, 3, R'_3$ va $O_2, 2, 1'$ nuqtalar orqali birlashtiriladi. $O_2 O_{21} = 0,7 \text{ sm}$ $1-1'' = 1,5$ $R_3 R_3' = 1.5 \text{ cm}$ $R_p G_2 = G_2 G_4 + 0,5 G_2 G_4$ (chizmadan) $4 - 5 = 1 - 2 \text{ sm}$ $R_p 8 = G_4 2 + 0,5$ yeng qiyamasi $1''$, $8, G_2, 5, R''_3$ (·) lar orqali o'tadi.</p>
<p>1.4. Bir chokli yeng chizmasini chizish.</p>		<p>$O_1 R_1 = O_1 R_p$ O_1, L_{21}, M_{11} nuqtalar birlashtiriladi. $L_3 L_{21} = L_3 L_1 : 2$ $M_2 M_{11} = M_2 M : 2$ $R_p R_1 = R_p O_1$ $L_1 L_{22} = L_1 L_{21}$ $MM_3 = MM_{11}$ $M_3 M_{31} = 0,5 R_1 R_2 2, M_{31}$ nuqtalar birlashtiriladi. $R_1 R_2 = R_1 O_1$ $L_3 L_{41} = L_3 L_{21}$ $M_2 M_4 = M_2 M_{11}$ $R'_3 6 = R'_3 R_{21} : 2$ $6-7 = 1 \text{ sm}$.</p>
<p>1.5. Tirsak vitochkasini qurish.</p>		<p>Tirsak vitochkasini qurish: L_3 nuqtadan $L_3 M_2$ chiziqqa chapga perpendikulyar o'tkazib L_{42} nuqta belgilanadi. Vitochka uchlari to'g'rilanib L_{42} va M_4 nuqtalar birlashtiriladi. Vitochkani chizishda buklovga 1,5-2,0 sm yetkazmay qisqartiriladi.</p>

<p>2.4. Yoqa qaytarmasi va uchlarini qurish.</p>		<p> $VV_2 = 8,0 \dots 14,0$ sm (yoqa kengligi) $AA_3 = VV_2 + 1,0$. AA_3 chiziq OA chiziqqa perpendikulyar o'tadi. $A_3A_4 = 4,0 \dots 5,0$ sm. V_2 nuqta A_4 nuqta bilan to'g'ri chiziq orqali birlashtiriladi. Uning o'rtasida A_6 nuqta qo'yilib, undan V_2A_4 ga perpendikulyar chiqariladi. $V_2A_6 = (V_2A_4) / 2$ $A_6A_7 = 1,0 \dots 1,5$ sm Yoqa qaytarma chizig'i silliq egri chiziq bilan V_2, A_7, A_4 nuqtalardan o'tkaziladi. </p>
--	--	---

2.3 Kasb –hunar kollej o’quvchilariga “Kiyimlarni modellash” fanidan “Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellash va badiy bezak berish” mavzusini yangi pedagogik texnologiya asosida o’qitish metodikasini ishlab chiqarish.

Bilimdan ko’zlangan maqsad:



Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellash va badiy bezak berishning tasnifi, qo’llaniladigan xomashyo bo’yicha ma’lumotlar berish.

Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellash va badiy bezak berishni o’rganish. chiqarish usullari haqida talabalarga bilim va ko’nikmalar berish.



Talaba quyidagi ma’lumotlarni olishi mumkin:

- ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini haqida ma’lumotga ega bo’lishi;**
- ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellashni o’rganish;**
- ayyollar mavsumiy va qishki paltolariga badiy bezak berish;**



Talaba quyidagi ko’nikmalarga ega bo’ladi:

- Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarga kerakli mato tanlash ko’nikmasiga ega bo’lish;**

- **Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellash usullari bo'yicha ega bo'lish;**

- Ayyollar mavsumiy va qishki paltolariga badiy bezak berish ko'nikmasini shakllantirish;




Yo ritilishi ko'zda tutilgan umumiy mavzular:

-Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini turli xususiyatlari bo'yicha tasnifi;

- Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellash jarayoni;

- Ayyollar mavsumiy va qishki paltolariga badiy bezak berish usullari;
ish- mavzu bo'yicha amaliy;



Nazariy va amaliy qismlarning uzviy bo'liqligi

Nazariy qism: Ayyollar mavsumiy va qishki paltolari haqida, ularni modellash va badiy bezak berish usullari bo'yicha ma'lumot keltirish.

-Amaliy qism: Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini loyihalash, shu asosda modellash va badiy bezak berishda dars jarayoni ko'rgazmali qurollar, namunalar, kodoskop, kompyuter texnikasi, shablonlar va shu kabi kerakli jixozlar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

Asosiy qism

1. Mo'ljal usuli
2. Xisoblash usuli
3. O'lchab – xisoblash usuli
4. Yagona loyixalash usuli.
5. Kiyimni loyixalash uchun ishlatiladigan qo'shimchalar.
6. O'lchovlar.

Tikilgan buuymlar gavda chiroyli turishi uchun shu buuymning chizmasini

to'g'ri chizish kerak. Buuym chizmasi chizishni loyixachilar bajaradilar. CHizma chizishning 4 xil usulli bor.

1. **Muljal usuli.** Bu usul eng qadimiy aniq usul bo'lib, shu bilan birga murakkab mehnatni talab qiladi. Bunda gazlama yoki uymshoq odam gavdasiga yoki monekenga to'nagichlab chiqiladi. To'nagichlab odam gavdasining konstruktiv chiziqlari bo'ylab (bo'yin, elka, eng, o'yindisi, yon, bel, o'rta chiziqlar) to'nagichlanadi. Rangli ipda go'g'nalgan joylardan tikib chiqiladi. SHunda ko'krak dumligini aniqlovchi ko'krak vitochkasi 2 tomondama tikiladi. So'ngra tunag'ichlar bo'shatilib, gazlama yoki qog'ozni stol ustiga eyiladi. Bu hosil bo'lgan chizma gavdaning asos chizmasi hisoblanadi.

2. **Hisoblash usuli.** Bu usulni ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan malakali tikuvchilar qo'llaydi. Ular gavdadan ayrim o'lchovlarni olib, sodda hisoblash formulalari yordamida buuym chizmasini gazlamaning o'zida bajaradi, ya'ni andoza tayyorlab o'tirmaydilar. Bu usul yakka tartibda buuym ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

3. **O'lchab hisoblash usuli.** Bu usul keng tarqalgan bo'lib qulay usul hisoblanadi. Bunda gavdadan o'lchovlar olinadi. Xisoblash jadvali tuziladi. Jadval asosida buuym chizmasi chiziladi. Bu usullardan maktablarda, o'quv muassasalarida, to'garaklarda qo'llaniladi. Chizma chizishni, andoza tayyorlashni o'rganayotgan kishilar uchun bu usul qo'llay hisoblanadi.

4. **Yagona loyixalash usuli.** Bu usulni SNISHP (markaziy tikuvchilik sa'noati ilmiy tadqiqot institutu) institutu tomonidan ishlab chiqilgan. Ishlab chiqish jarayonida aholining antropometrik o'lchovlari asosida standartlar ishlab chiqilgan.

Bo'shliqlar kiyimda asosan odamning erkin harakatlanishi uchun berilib uzunlik o'lchovlarida kamroq. Masalan Or.BU, Or.KI o'lchovlarida 0 dan 1,5 gacha ko'proq berilib, 0 dan 5 smgacha beriladi.

Bo'shliq deb, odam gavdasi o'lchami bilan kiyim o'lchami orasidagi farqqa aytiladi.

Bo'shliqlar 2 guruhga bo'linadi.

1. Texnika bo'shliqlar.

2. Konstruktiv – dekorativ bo'shliqlar.

Texnik bo'shliqlar o'z navbatida 4 ga bo'linadi.

- 1) Minimal bo'shliq.
- 2) Kiyim qavati uchun.
- 3) Erkin harakatlanish uchun.
- 4) Texnologik.

Minimal bo'shliqda odamning qon aylanish, nafas olishi, ovqat xazm bo'lishi hisobga olinadi.

Kiyim qavati uchun bo'shliqda asosan ustki kiyimlar uchun ichidan necha qavat kiyilishini hisobga olgan holda bo'shliq beriladi.

Erkin harakatlanish uchun bo'shliqda asosan kiyimni qaerda kiyilishini hisobga olgan holda olinadi.

Texnologik bo'shliqda kiyimni tayyorlash jarayonida uuning gazlamasi turiga, qalinligiga qarab ishlov berilishiga, ya'ni qotirmalar bilan ishlov berish, issiq qatlamlar bilan berish xisobga olinadi.

Konstruktiv – dekorativ bo'shliqlar o'z navbatida 2 ga bo'linadi:

- 1) Konstruktiv bo'shliqlar.
- 2) Dekorativ bo'shliqlar.

Konstruktiv bo'shliqlarga kiyimni bichimi hisobga olinadi. Masalan: kiyimning bichimi bo'lishi mumkin bo'lgan to'g'ri, gavdaga sal yopishgan va gavdaga yopishgan bo'ladi. Bu erda to'g'ri bichimligiga eng ko'p bo'shliq beriladi.

Dekorativ bo'shliqlarga kiyim bezaklari uchun beriladigan bo'shliqlar hisobga olinadi. Masalan burmalar, taxlamalar, buflar, vafli va xokazolar uchun bo'shliq beriladi.

Tikilgan buuym gavdada chiroyli turishi uchun andozani to'g'ri tayyorlash kerak. Andozani to'g'ri tayyorlash uchun gavdadan o'lchovni to'g'ri olish kerak, o'lchov santimetr lentasi yordamida olinadi. Bunda lentani juda tarang tortish yoki bo'sh qo'yish yaramaydi, o'lchov olinayotgan kishi ichki kiyimda oyoq kiyimisiz beli bog'langan holda turishi kerak. Gavdadan olinadigan o'lchovlar 5 turga bo'linadi.

- 1) Aylana o'lchovlari – A
- 2) Yarim aylana o'lchovlari – YAA
- 3) Kenglik o'lchovlari – K
- 4) Uzunlik o'lchovalari – U
- 5) Balandlik o'lchovlari – B

Aylana o'lchovlari

Bosh aylanasi- BoshA

Bilak aylanasi – BA

Son aylanasi – SA

Tizza aylanasi- TA

Qo'l aylanasi – qA

Yarim aylana o'lchovlari.

Yarim aylana o'lchovlarida o'lchovning Yarimi yoziladi. Bo'yin Yarim aylanasi – BnYAA.

Ko'krak Yarim aylanasi – KYAAI.

Ko'krak Yarim aylanasi – KYAAII.

Munchoqlar bilan bezash insonni aqlan chidamli, sabr-toqatli, e'tiborli, nazokatli, didli bo'lishga undaydi. Ko'pincha ayollarimiz asab kasalliklariga duchor bo'lganda vrach ularga to'qish, kashta tikish, munchoq va pistonlar tikishni tavsiya etadi, chunki bu ish asablarni tinchlantirishda juda ham yaxshi mashg'ulot bo'lib hisoblanadi. Bu ish bilan band bo'lgan kishining hayolida hech qanday yomon o'y bo'lmaydi, u faqat rasmlarni joylashtirish haqida o'ylaydi.

Biz tez o'zgarib turgan, kundan-kunga rivojlanib borayotgan bir davrda yashab kelmoqdamiz. Har bir ayolning dunyocha tashvishi bor, ammo biz bunga qaramasdan o'zimizni o'zimiz yuqoriga ko'tarmog'imiz, go'zalligimizni yanada boyitmog'imiz, uni xilma-xil rango-rang bezak, naqshlar, har xil shakldagi munchoq va pistonlar bilan to'ldirmog'imiz kerak. Mana shunday bezak ishlarni bajarishda bizga o'quv moduli yordam beradi.

Biror bir narsani tikishdan oldin, uning umumiy badiiy yechimini o'ylab ko'rish, bezakning, undagi ayrim bo'laklarning buyum yuzasiga qanday joylashtirishni, elementlarning nisbatlarini qanday rangda tikishni, ya'ni kompozitsiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani aniqlab olish kerak.

Kompozitsiya xarakteri ko'proq rasmga naqshdagi alohida elementlar yoki element gruppalarining qonuniy almashinishiga bog'liq bo'lib, bu kompozitsiyaning ifodali bo'lishiga, aniq idrok etilishiga yordam beradi.



1-rasm. Naqsh munchoqli bezaklarning turlari

1-rasmda yo'l ichidagi naqshbezaklar ifodalangan bo'lib, har bir yo'lda ma'lum umumlashtirilgan uslubda, bitta motiv bir yoki bir necha marta takrorlanib, ritmik qator hosil qiladi. Mutlaqo bir xil elementlar gruppasining takrorlanishi rapport deyiladi. (2-rasm).



2-rasm. Rapport takrorlanish munchoqli bezak guli

Buyumning butun yuzasi yoki biron qismi naqshli munchoq bilan bezatilishi, buyumning yuzasi bo'ylab ba'zi naqsh mativlari sochilgan bo'lishi mumkin.

Piston va munchoqli naqshni tuzishda geometrik shakllar (uchburchak, kvadrat, yulduzcha, aylana va h.klar) dan, shuningdek to'lqinsimon siniq chiziqlar, spirallardan, o'simlik motivlari (barglar, gullar, shohlar, daraxtlar) dan shuningdek umumlashgan odam qiyofasidan foydalanish mumkin. Ba'zan bezakda motivlar qaytarilmaydi. Bezak simmetrik va assimetrik asosda tuzilishi mumkin. Bunday bezak ham naqshli bo'ladi.

Piston va munchoqlar bilan bezash rang bilan chambarchas bog'liqdir. Munchoqlarni tanlashda iplarni, ranglarning uyg'unlashuvini va ular bir-biriga qanday ta'sir etishini bilish zarur. Buning uchun loqal ranglarning asosiy xususiyatlari va o'zaro ta'siri-ranglarning uyg'unligi, ularning bir xil tushishi bilan qisqacha tanishib chiqish zarur.

O'zaro mos ranglarni tanlashda berk spektr qatori ranglaridan iborat ranglar doirasi asos qilib olinadi.

Ranglarni uyg'unlashtirish uchun ranglar doirasining $1/4$ qismi ichidagi bir-biriga yaqin rang turlarini (turdosh ranglar mosligi), masalan, sariq bilan sarg'ish – yashil rangni olish mumkin. Uchta kontrast ranglar (yoki ularning turlari) birga qo'shilishi chiroyli original chiqadi. Bu ranglar – ranglar doirasi, ichiga chizilgan, teng tomonli yoki teng yonli uchburchaklarning uchida yotgan ranglardir.

Rang tanlashda uning yana bir xususiyatini esda tutish kerak, rang buyumning shaklini yoki katta-kichikligini o'zgartirib ko'rsatishi mumkin.

Piston va munchoqlarni tanlash, ular rangini xillash buyumning nimaga mo'ljallanganiga, gulning kattaligi va qanday joylashishiga bog'liq bo'ladi.

Kashta va munchoqlarni tikish uchun asboblari va moslamalar

Qo'lda piston va munchoqlarni tikish uchun juda oddiy asboblari kerak. Bular maxsus ingichka igna, angishovna, qaychi, santimetr, o'tkir uchli dukcha, kergi, flizilin yoki dublirin kerak bo'ladi.

Gazlama va ip tanlash

Bezaki tikish uchun gazlama bilan ip buyumning nimaga mo'ljallanganligiga, bezakning xarakteriga va tikish usuliga muvofiq tanlanadi. Oq tekis chokni ip tortimlarini tikish uchun 80 raqamli ip ishlatiladi. Iplar pishiq, tekis, yorug'lik va suvga chidamli bo'lishi kerak. Ipning pishiqligi qo'l bilan tortib tekshiriladi, yaxshi ip darrov uzilmay cho'zilishi lozim.

Asosan piston va munchoqlarni tikishda jilka iplardan foydalaniladi. Bu ip juda mustahkam bo'lishi bilan bir qatorda munchoqlar teshigidan o'tishi oson kechadi.

Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini ularni bichishdan oldin yoki ularning bichilgan bo'laklariga bezakni tikib olish eng qulaydir.

Bichishdan oldin tikishda kiyim bo'laklarining konturlari andaza bo'yicha belgilab chiqiladi, keyin bezak ko'chiriladi va tikilaveradi.

Oson bezaklarni tayyor kiyimga tikish mumkin. Bunda gazlama tagiga, qattiq qog'oz yoki taxtacha qo'yib, unga kashta guli ko'chiriladi va piston, munchoq, toshlar ko'zlar bilan to'ldiriladi.

Mavzu: Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellash va badiy bezak berish

Ma`ruza mashg`ulotni o`qitish texnologiyasi.

Vaqt- 2 soat	Talabalar soni: 20 nafar
O`quv shakli – amaliy	Kirish axboroti, ma`ruza.
Ma`ruza mashg`ulotining rejasi.	1. Mavsumiy paltolarga ko`yiladigan talablar. 2. Palto kiyimlarni shakllari 3. Qishki va mavsumiy paltolarni modelini yaratishda modelini o`ziga xos xususiyatlari
O`quv mashg`ulotining maqsadi.	Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellash va badiy bezak berish bo`yicha tushunchalar hosil qilish.
-Pedagogik vazifalar: - Mavsumiy kiyimlar haqida ma`lumot berish. - Qishki paltolar haqida tushuncha berish. - Qishki paltolarga bezak berish haqida ma`lumot berish.	O`quv faoliyatining natijalari: Talaba - Mavsumiy paltolarga ko`yiladigan talablar aytib beradilar. - Palto kiyimlarni shakllari yoritib beradi. - Qishki va mavsumiy paltolarni modelini yaratishda modelini o`ziga xos xususiyatlarini
Ta`lim berish usullari.	Ko`rgazmali, ma`ruza, suhbat, ekskursiya
Ta`lim berish vositasi	Ma`ruzalar matni, amaliy ishlanma, proektor.
Ta`lim berish shakli	Jamoa - guruh
Ta`lim berish sharoiti.	Monitoring va baho, og`zaki, nazorat, savol-javob, doska bilan jihozlangan auditoriya.

Ma`ruza mashg`ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta`lim beruvchi	Ta`lim oluvchi
Tayyorgarlik bosqichi	1.Mavzu bo`yicha o`quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma`ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Ta`limning o`quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. O`quv kursini o`rganishda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatini ishlab chiqish.	
1-bosqich	1.1.Oquv kursi nomini	Tinglaydilar.

Kirish (10daqqa)	<p>aytadi.Ekranga mavzu ro`yxatini chiqaradi va ularga qisqacha ta`rif beradi.</p> <p>1.2.Mashg`ulot mavzusi, maqsadi va o`quv faoliyati natijalari bilan tanishtiriladi.</p> <p>1.3.Baholash mezoni bilan tanishtiradi.</p> <p>1.4. Talabalar bilimlarini faolashtirish maqsadida savollar beradi.</p>	<p>Tinglaydilar.</p> <p>Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.</p>
2-bosqich Asosiy qism (50 daqiqa)	<p>2.1. Kompyuter texnikasi yordamida slaydalarni namoish qilish va izohlash bilan mavzu bo`yicha asosiy nazariy jihatlarni tushuntirib beradi.</p> <p>2.2 Paltolarga badiy ishlov berishni tushuntirib beradi.</p> <p>2.3. Modellashtirish usullari haqida slaydalar orqali ma`lumot beradi.</p>	<p>Tinglaydilar. Yozib oladi. Tinglaydilar. Yozib oladi. Bajaradi</p>
3-bosqich Yakuniy (20 daqiqa)	<p>Mavzu bo`yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi. Yakunlovchi xulosa qiladi.</p> <p>Mavzu bo`yicha test o`tkaziladi</p>	<p>Savollar beradilar, vazifani yozib oladilar.</p>

Ma`ruza mashg`ulotlar oxirida o`quvchilarni o`zlashtirish natijalarini bilish maqsadida guruhnikichik guruhlarga ajratib 4 xil variantdagi 10 tadan iborat test beriladi. Guruhlar va talablarning yakka tartibdagi test natijalari e`lon qilinib, golib guruh va keng ko`p topgan o`quvchi qo`shimcha rag`batlantiriladi.

Ma`ruza mashguloti yakunida uyga vazifa sifatida o`tilgan mavzuni o`qish va ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellashtirish va badiy bezak berish berish bo`yicha o`zlarinig yangi loyixa, takliflar tayyorlash beriladi.

**Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellash va badiy bezak berish
berish bo'yicha amaliy mashg'ulotni tashkillashtirish**

O'quv amaliyotini o'tkazish bosqichlari	Faoliyat turlari	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1-bosqich. Kirish. <i>5 daqiqa</i>	Mavzuni e'lon qiladi. Mavzu bo'yicha vazifalarni tushuntiradi. Bajariladigan ishlar ketma-ketligi bilan tanishtiradi.	Tinglaydi.
2-bosqich. O'quv materialini bayon etish. <i>15 daqiqa.</i>	Mazkur mavzu bo'yicha o'quv materialini bayon qiladi. O'quvchilarning nazariy bilimlarini baholash uchun test va tarqatma materiallarni tarqatadi.	Eshitadi. Test savollariga javob beradi. Tarqatma materiallarni sinflar ajratish
3-bosqich: Kirish yo'riqnomasi. <i>10 daqiqa.</i>	O'quvchilarni mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi, sanitariya-gigiena qoidalari bilan tanishtiradi. O'quvchilarni yo'l-yo'riq xaritasi bilan ta'minlaydi va quyidagilarni amalda bajarib ko'rsatadi. <ul style="list-style-type: none"> - ayollar ustki kiyimlari va paltosi assortimenti; - palto uchun asosiy (avra) gazlama tanlash; - gazlama xususiyatlari, qomat va tana tuzilishiga qarab palto modelini tanlash; - palto uchun astar va qotirma materiallar tanlash; - palto asos konstruktsiyasini qurish uchun razmer o'lchovlarini o'lchash; - palto asos konstruktsiyasini qurish uchun razmer o'lchovlari va qo'shim miqdorini aniqlash; - ayollar paltosining asos konstruktsiya chizmasini qurish. Har bir ish joyida qanday ish olib borish bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Vazifani bajarish uchun vaqt belgilaydi.	Usta bajarib ko'rsatayotgan ishlarni diqqat bilan kuzatadi. Tushunmagan joylari bo'lsa, qo'shimcha savol beradilar.
4-bosqich. Amaliy ish <i>40 daqiqa.</i>	O'quvchilarni bajaryotgan ishlarini tekshirish uchun ish o'rinlarini aylanib chiqadi va joriy yo'l-yo'riqlar	Har bir ish joyida berilgan yo'l-yo'riq xaritasini

	beradi.	<p>o'rganadilar va quyidagilarni:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ayollar ustki kiyimlari va paltosi assortimentini; - palto uchun asosiy (avra) gazlama tanlashni; - gazlama xususiyatlari, qomat va tana tuzilishiga qarab palto modelini tanlashni; - palto uchun astar va qotirma materiallar tanlashni; - palto asos konstruktsiyasini qurish uchun razmer o'lchovlarini o'lchashni; - palto asos konstruktsiyasini qurish uchun razmer o'lchovlari va qo'shim miqdorini aniqlashni; - ayollar paltosi asos konstruktsiya chizmasini qurishni amalda bajaradilar.
<p>5-bosqich. Baholash, tahlil qilish, yakunlash. <i>10 daqiqa.</i></p>	<p>Har bir o'quvchining bajargan ishlarini qabul qilib, darsga yakun yasaydi. Bajarilgan ishlardagi yutuq va kamchiliklarni ko'rsatadi. Ish o'rnini qabul qilib oladi.</p>	<p>Bajargan ishlarini tekshirtiradi. Usta bergan ko'rsatmalarni va baholarni eshitadi. Uy vazifani daftarga yozib oladi. Ish joyini tartibga keltiradi.</p>

2.4. Kiyimlarni modellash fanini jarayonida hayotiy faoliyat xavfsizligi

Respublikamizda chuqur iqtisodiy o'zgarish bo'layotgan bir davrda, kadrlar tayyorlashning milliy dasturi kuchga kirishi, yuqoridagi fikrni amalga oshirishning dastlabki bosqichi bo'lib xizmat qiladi. Ko'p bosqichli ta'lim tizimiga binoan oliygohlarda tayyorlanadigan bakalavrlar uchun o'quv rejasiga «Hayotiy faoliyat xavfsizligi» fanining kiritilishi bo'lg'usi mutaxassislarning bilimini chuqurlashtirilishiga yordam berishi so'zsizdir.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi (HFX) fanining diqqat markaziga qo'yilgan maqsad bu insonning jamiyat taraqqiyotidagi rolidir. Hayotiy faoliyat xavfsizligi bu har qanday sharoitdagi inson faoliyatidir. Insonning hamma faol harakati (mehnat jarayonida, dam olishda, uyda hamda sportda) uning faoliyatini tashkil qiladi.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi fani o'z tarkibiga inson faoliyatining atrof-muhit bilan aloqasi, mehnat faoliyatidagi xavfsizligi va favqulodda vaziyatlardagi xavfsizligi bo'limlarini qamrab olgandir. Hayotiy faoliyat xavfsizligi printsip va usullar asosida: baxtsiz, hodisalar, qurbonlar va ular natijasida kelib chiqadigan zararlarni kamaytirish masalalarini keng miqyosda qo'yadigan va hal qiladigan fandır. HFX-bu har qanday ko'rinishdagi faoliyatga qo'llanishi mumkin bo'lgan xavfsizlikning nazariy asosidir.

«Hayotiy faoliyat xavfsizligi» kursi bo'lg'usi mutaxassislarni mehnat muhofazasining ilmiy asoslariga doir bilimlar bilan qurollantirish va ularda ishlab chiqarishdagi mehnat sharoiti hamda mehnat muhofazasini yaxshilash muammolarini ijobiy hal etishga qiziqish uyg'otishga mo'ljallangan. Buning ilmiy zamini esa quyidagilardan iboratdir.: ishlab chiqarishda shikastlanish, kasalliklar, ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan yong'in hamda portlashlar sabablarini har tomonlama tahlil qilish; ishlab chiqarishdagi xavflilik va zararlilik darajasini o'rganish; to'qimachilik, paxta, ipak va engil sanoatda qabul qilingan yoki joriy etishga tavsiya etiladigan, og'ir hamda sermehnat ishlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni ko'zda tutuvchi texnologik jarayonlarni baholash. Mazkur kurs «Ergonomika», «Muhandislik psixologiyasi», «Mehnatni ilmiy tashkil qilish»,

«Texnik estetika», «Mehnat fiziologiyasi va gigienasi», «Huquqshunoslik», «Iqtisodiyot», «Atrof muhitni muhofaza qilish» kabi fanlar bilan bog'langandir.

HFX fanining diqqat markaziga qo'yilgan maqsad bu insonning jamiyat taraqqiyotidagi roli.

Mehnat muhofazasi insonni ishlab chiqarishdagi ahvoli, u bilan bog'liq masalalarni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Hozirgi vaqtda inson-tabiiy, texnik, iqtisodiy va boshqa har xil xavf-xatar dunyosida ishlaydi. Shu xavf-xatarlar natijasida juda ko'p insonlar hayotdan ko'z yumadilar (Armanistodagi zilzila, Chernobil AES halokati, Jigaristondagi er siljishi, Admiral Naximov paroxodining cho'kishi, Serdlovskiyda Chelyabinsk-Ufa temir yo'l uchastkasida portlash va h.k.). Shuning natijasida 3000 dan ortiq odam halok bo'ldi. 20000 odam nogiron bo'ldi va 200000 odam kasallandi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 42-sessiyasida 1991 yildan boshlab tabiiy ofat va falokatlarni kamaytirish bexatarlik yillari, deb belgilangan edi.

Hayotiy faoliyat xafvsizligi tushunchasida ko'p uchraydigan ta'riflar bilan belgilanadi. Faoliyat-insonning jamiyatda mavjud bo'lishi uchun kerakli sharoit. Mehnat-faoliyatning yuqori shakli. Faylasuflarning fikricha, inosning ta'rifi-harakatdagi, mehnatdagi faoliyatidadir. Mehnat va faoliyat shakllari turlicha bo'lib, ular hayotda uchraydigan aqliy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va boshqa jarayonlarni o'z ichiga oladi. Xavflar-yashirin (potensial) va haqiqiy bo'ladi. Yashirin xavflar amalga oshishi uchun aniq shartlar bo'lishi lozim. Bu shartlar sabab deb ataladi. Xavf va sabalarni misollar (raqamlarda) ko'rish mumkin:

So'nggi 30 yil ichida (69-1990 y.) tabiiy ofat ikki marta ko'paygan;

1909 dan 1974 yilgacha asabiy kasalliklar 24 marta ko'paygan;

Dunyoda 500 mln. ga yaqin nogironlar bo'lib, ularning 1-5 qismi baxtsiz hodisa natijasida bo'lgan. Har qanday faoliyat yashirin (potensial) xavflidir. Shu bilan birga xavf darajasini boshqarish ham mumkin. Bu ikr mutlaqo xavfsiz faoliyat bo'lmasligiga asoslangan. Xavfsizlik – bu ayrim ehtimollarga asoslanib paydo bo'ladigan xavf-xatarlarni istisno etilgan faoliyat holatidir.

Xavfsizlik – bu maqsad, HFX bo'lsa shu maqsadga erishish uchun qo'llanadigan vositalar, yo'l-yo'riq, qo'llanmalar usullardir. HFX – bu xavf-xatarlarni o'rganish va insonni himoya qilishni o'rganadigan fandır. Xavfsizlikning umumiy nazariyasining tuzilishida tamoyil (printsip)lar va usullar ko'rilayotgan bilim sohasida aloqador to'g'rsida to'la tasavvur qilishga metodologik ahamiyatga ega. Asos (negiz, printsip)-bu fikr, g'oya, maqsad (asosiy holatdir). Usul-bu eng umumiy qonuniyatlarni bilish orqali maqsadga erishish yo'li. Xavfsizlikni ta'minlash choralari – bu usullarni va asoslarni amaliy, tashkiliy, moddiy gavdalantirib amalga oshirishdir. Asoslar, usullar, choralar – bu xavfsizlikni ta'min etishdagi mantiqiy pog'onalaridir. Ularni tanlab olish faoliyatning aniq sharoitlariga, xavfning darajasiga va boshqa mezonlarga bog'liq.

Ma'lumki, har bir mustaqil davlat o'zining mudofaa qudratiga ega. Mudofaa siyosatini qay tarzda amalga oshirish imkoniyatlari o'sha dav-latning qudratini belgilaydi. Chunki har bir davlat moddiy boyliklarim, texnikalarini, harbiy ahamiyatga molik bo'lgan inshootlarini, xalqini himoya qilishda, saqlashda yangi turdagi omillarni yaratadi va ishlab chiqaradi. Shu tariqa davlatlar ichida yangi-yangi qurollar yaratiladiki, bular nafaqat insoniyatga, balki butun jonli tabiatga, atrof-muhitga juda katta ziyon yetkazadi. 1990-yilgacha biz dunyoni ikki tizimga (kapitalis-tik va sotsialistik) bo'lib kelgan edik va har ikkalasida ham umumiy qirg'in qurollari yaratilganligini yaxshi bilamiz. Bunday qurollarni ba'zi birlari aynm davlatlar tomonidan sinab ko'rildi ham va hozirgi kunga-cha ulaming asoratlari to'g'risida eshitib kelyapmiz. Masalan, 1945-yilda Yaponiyaning Nagasaki va Xerosima shaharlariga AQSHning yadro quroli tashlandi. Keyinchalik Koreyaga, Vyetnamga turli xildagi napalmlar (dirildoq holdagi yondiruvchi modda), oskolkali (parchali), yondiruvchan bombalar tashlandi.

Yuqoridagi qurollar yer yuzida mavjud ekan, albatta, har bir davlat bunday qurollardan saqlanish vositalarini izlaydi, omillarini ishlab chi-qadi. Shuning uchun har bir davlatning mudofaa qudrati asosini fuqarolar muhofazasi tashkil etadi.

Fuqarolar muhofazasi - umumdavlat mudofaa siyosatlaridan bin bo'lib, u har qanday favqulodda holatlarda fuqarolarni, iqtisodiyot tarmoqlarini muhofaza qilishda, ulaming muttasil, ishlashini ta'minlashda hamda qutqarish va tiklash ishlarini bajarishda katta ahamiyat kasb etadi. Albatta, fuqarolar mudofaasi oldiga qo'yilgan yuqoridagi ishlar 1945-yildan to 1990-yillargacha yetib keldi, lekin shu davrgacha yuqoridagi ishlarni bajarish uchun ehtiyojlar boimadi. Afsuski, bu davrlarda (tinchlik davrlarida) tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish avariylari, turli xil halokatlar yuz beradiki, xalqimiz, iqtisodiyotimiz bundan jiddiy zararlanadi. Bunday holatlarda biz bir-birimizga yordam berishga tayyor emas edik. Mustaqillik davridagina favqulodda holatlarda fuqarolar muhofazasi tomonidan yetarli ijobiy ishlar qilina boshlandi. Jumladan, mustaqilligimizning dastlabki davrlarida fuqarolarni va hududlarni tabiiy ofatlardan, turli xildagi avariylardan muhofaza qilish, fuqarolarning mo'tadil hayot faoliyatini ta'minlash borasidagi vazifalarni hal etish uchun O'zbekiston hukumati tomonidan 1991-yilda fuqaro mudofaasi tizimi fuqaro muhofazasi tizimiga aylantirildi. Yangidan tashkil etilgan ushbu tizim O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tarkibiga kiruvchi fuqaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasi sifatida tinchlik davrlardagi tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish falokatlari va halokatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini tugatish vazifalarini bajaradi. Mam-lakat fuqarolar muhofazasini rivojlantirishning asosiy konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1994-yil 9-ap-relda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Respublika faollarining Kenga-shida so'zlagan nutqida bayon etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 4-martdagi farmoniga binoan aholini va iqtisodiyot tarmoqlarini, inshootlarini tabiiy ofatlardan muhofaza qilishning samarali tizimini tashkil etish, Respublikada tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarini oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining Fuqaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasi negizida O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV) tashkil qilindi.

FVV ning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishi asosan: favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, fuqarolar hayoti va salomatligini muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlar yuz berganda ulaming oqibatlarini tugatish hamda zararini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hol-larda harakatlarni boshqarishning davlat tizimi (FVDT)ni tashkil etish va uning faoliyatini ta'minlash, fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish, vazir-liklar, idoralar, mahalliy davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish, maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va hokazolarga qaratilgan.

FVV ning muvaffaqiyatli ish olib borishida mamlakatimizda yaratilgan kuchli huquqiy bazaning ahamiyati katta. Jumladan, favqulodda vaziyatlar masalasida O'zbekiston Respublikasining «Aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida» (1999-y.), «Fuqaro muhofazasi to'g'risida» (2000-y.), «Gidrotexnik inshootlarining xavfsizligi to'g'risida» (1999-y.), «Radiat-siyaviy xavfsizlik to'g'risida» (2000-y.), «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi (2000-y.) Qonunlari, Respublika Prezidentining ikkita Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 30 dan ortiq qaror va farmoyishlarini aytish mumkin. Qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda Rossiya, AQSH, Germaniya, Fransiya, Ukraina, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Italiya va boshqa yetakchi davlatlarning fuqaro muhofazasi tizimini shakllantirish borasidagi tajribalari inobatga olingan.

O'zbekiston fuqarolarini favqulodda vaziyatlardan muhofaza etish-ning qonun bilan belgilangan asosiy tamoyillari: insonparvarlik, inson hayoti va sog'lig'ining ustuvorligi, axborotning o'z vaqtida berilishi va ishonchliligi, favqulodda vaziyatlardan fuqarolarni muhofaza qilish choralarining ko'rilishidir.

Respublika FVDT O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 11-dekabrda Farmoniga asosan Bosh vazir tomonidan boshqariladi. Hozirgi kunda FVDT ning Respublika, mahalliy va obyekt bosqichidan iborat 14 ta hududiy va 40 dan ortiq funksional quyi tizimdan iborat bo'lgan favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularda harakat qilish davlat tizimi o'z faoliyatini ko'rsatmoqda. Bu

tizimning yagona konsep-siyani belgilash, bashoratlash, tahliliy ishlar, turli dasturlar yaratish va ulami amalga oshirish, fuqaro muhofazasi kuch va vositalarining doimiy tayyorgarligini ta'minlash, falokatlar, halokatlar, tabiiy ofatlarni bartaraf qilish hamda xalqaro hamkorlik borasida olib borilayotgan ishlar o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Bu tizimni yanada rivojlantirish va mustahkamlashda hukumatimiz tomonidan fuqarolarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlashni tashkil etish, FV larni tasniflash, avariya-qutqaruv tizimlarini kengaytirish, vazifalarini takomillashtirish va ulami zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash, suv osti xizmatini yaratish kabi tadbirlar borasida katta yordam ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunga kelib FVDT tarkibida «Najotkor» Respublika qidiruv-qutqaruv markazi, «Xaloskor» maxsus harbiylashtirilgan qidiruv-qutqaruv qismi, «Qutqaruvchi», «Qamchiq», «Olmazor» qismlari tashkil etilib, ular tomonidan 10 mingdan ortiq marotaba turli favqulodda vaziyatlarda aholiga yordam berildi. Jumladan, Tojikiston Respublikasining Qayroqqum bekatida sodir bo'lgan temir yo'l halokati, 1998-yilda Sho-himardonda sodir bo'lgan sel ofati, 1999-yilda Turkiyada ro'yo bergan Izmir zilzilasi, 1999-yilda Qamchiq dovonida yuzaga kelgan qor ko'chi-shi, 2001-yilda yuz bergan Toshkent viloyati Qodiriya bekatidagi temir yo'l halokati, 2003-yilda Qirg'izistondagi yer surilishi va boshqalarni misol tariqasida keltirish mumkin. Bu yo'nalishdagi ishlar saviyasini yanada oshirish maqsadida respublikaning ko'pgina shaharlarida, jumladan: Toshkent, Samarqand, Andijon, Jizzax, Chirchiq, Angren va boshqa joylarda maxsus «Qutqaruv xizmati» tizimlari tuzilgan va ularning zimmasiga har qanday ekstremal vaziyatlarda aholining hayotiga, salomatligiga xavf soluvchi holatlarda yordam berish vazifasi yuklatilgan. Qutqaruv xizmati tizimlarining o'z telefon raqamlari mavjud (masalan, Toshkent shahrida 050; Samarqand shahrida 911 va hokazo), ular tunukun o'z vazifalarini bajaradilar.

Shunday qilib, Kiyimlarni modellashtirish fanini oqitishda ham o'quvchilarni muhofazasi har qanday favqulodda vaziyatlarda o'quvchilarni, moddiy resurslarni muhofaza qilish, o'quvchilarni qanday xatti-harakat qilishi, ularga qanday chora-

tadbirlar bilan yordam berishi, shikastlangan hududlarda qutqaruv va tiklov ishlarni olib bo-riish, ishlab chiqarish tarmoqlarini muttasil ishlashini ta'minlash vazifalarini bajaradi. Zero, yer yuzida umumiy qirg'in qurollari, hujumkor qurollarning zamonaviy turlari mavjud ekan, shu bilan birga tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni bo'lishligi muqarrar bo'l-ganligidan har bir davlatda va uning har bir hududida va bo'g'inida fuqarolar muhofazasi davlat tizimi tashkil etiladi va uning vazifalari aniq belgilanadi.

2.5. Tadqiqot usullari va natijalarining tahlili

Kasb-hunar kolejlarida “Kiyimlarni modellash” fani darslarida biz tavsiya etgan ilg’or pedagogik texnologiyalar tajribada qo’llanilganda, o’quvchilar ulardan modellashga oid turli vazifalarni, topshiriqlarni bajarishda foydalana oldilar, hatto berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o’quvchilarda masalaga yangicha yondashuvlar yuzaga keladi. Natijada, o’quvchilarning bilim egallashlari, ko’nikma va malaka hosil qilish ishlari maqsadli amalga oshirildi. O’quvchilarda egallangan BKM elementlarini yangi holatlarda va vaziyatlarda amaliyotga tadbiq eta olish ko’nikmalari shakllantirildi.

Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari tekshiruvchi pedagogik tajriba bosqichida ishlab chiqilgan ta’lim mazmuni va metodlari “Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellash va badiiy bezak berish” darslarini o’tkazishda faol usullarning ta’sir doirasining funksional tuzilmasi nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Yuqorida qayd etilgan holatlar bo’yicha tajriba va nazorat guruhlarining so’rovlari yordamida olingan bilim, ko’nikma va malakalar monitoringi ko’rsatkichlari jadval ko’rinishiga keltiriidi

Tajriba guruh o’quvchilarining Davlat ta’iim standarti talablari asosida bilim, ko’nikma va malakalari monitoringi natijalari

11-jadval

Tajriba guruhi										
Metodlar	guruh	O’quvchilar soni	BKM soni	86-100 %	71-85%	55-70%	55%dan past	Umumiy %	Samara-dorlik	
Klast		12	1					10	6	
BBB		11	1					10	8	
O’rta		23	2					10	7	

11-jadvalda tajriba guruhi o’quvchilarining o’tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasida egallagan bilim, ko’nikma, malakalari monitoringi keltirilgan bo’lib, unda BKM o’zlashtirish ko’rsatkichi 55% dan yuqori bo’lganligi qayd etilgan va

qo'llanilgan faol usullarning 2 ta turi bir-biriga qiyoslab ko'rsatilgan.

Nazorat guruhi o'quvchilarining Davlat ta'lim standarti talablari asosida bilim, ko'nikma va malakalari monitoringi natijalari

12-jadval

Nazorat guruhi										
T.r	Metodlar	guruh	O'quvchilar soni	BKM soni	86-100 %	71-85%	55-70%	55%dan past	Umumiy %	Samaradorlik
1	Suhbat	VII	13	10	2	4	5	2	70	46
2	Tushuntirish	VII	13	10	1	4	7	1	92	38
3	Namoyish	VII	13	10	2	4	5	2	70	46
4	Ma'ruza	VII	13	10	0	2	7	2	70	31
5	Amaliy mashg'ulot	VII	13	10		4	5	1	92	54
	o'rtacha	VII							79	43

12-jadvalda nazorat sinfi o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalari monitoringi keltirilgan bo'lib, unda bu guruhlarda maxsus tajriba-sinov ishlari o'tkazilmaganligi sababli ularning BKM o'zlashtirish ko'rsatkichi 55% dan past bo'lganligi qayd etilgan.

Tajriba oxirida tajriba guruhidagi o'quvchilarning bilim sifati 73 % ni nazorat guruhidagi o'quvchilarning bilim sifati esa 43 % ni tashkil etgan. Farqi 30 % ni tashkil etdi.

Demak, tajriba guruhi o'quvchilarining bilim sifati 30 % ga yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, Kiyimlarni modellashtirish darslarini olib borishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash bevosita ta'lim jarayonining mohiyatini to'laqonli yoritishga va ularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Tajriba-sinov ishlarining taqqoslovchi bosqichida kiyimlarni modellashga oid nazariy dars va amaliy mashg'ulotlar jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalar tajribada qo'llanilganda o'qitishning samaradorlik darajasi tahlil qilindi. Bunda tajriba-sinov ishlari tajriba guruhida biz taklif etgan ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida, nazorat guruhida esa an'anaviy metodlar bo'yicha amalga oshirildi.

Tajriba natijalarini baholash uchun kiyimlarni modellash fani bo'yicha yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malaka (BKM) lari aniqlandi. So'ngra mazkur BKMLarning qay darajada shakllanganligini qiyosiy tahlil qilish maqsadida nazorat ishlari olindi. Bu o'rinda nazorat ishi topshiriqlari o'quvchilarning bilim, mehnat ko'nikmalarini aniqlashga xizmat qilishi ko'zda tutilib, 5 balli tizimda baholab borildi. Olingan natijalarni tahlil qilishda biz o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishni baholashning dastlabki va oxirgi natijalari bo'yicha taqqoslashdan foydalandik.

Tadqiqot natijalariga muvofiq ravishda o'quvchilar ishtirokidagi ikki tomonlama olingan nazorat ishlarining natijalarini Namangan shahardagi Engil sanoat kasb-hunar kollejdaning 203 guruh o'quvchilari misolida jadval ko'rinishida ifodalaymiz (11-jadvalga va ilovaga qarang). Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi tajriba sinov maydoni Namangan shahardagi Engil sanoat kasb-hunar kollejdaning 201 guruh o'quvchilari o'zlashtirishining dinamik o'sishi (birinchi va to'rtinchi choraklar bo'yicha) 13-jadvalda ko'rsatilgan.

Namangan shahardagi Engil sanoat kasb-hunar kollejdaning 202-guruh


O'quvchilarining nazorat ishi natijalari

13-jadval

Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
O'quvchilar tartib nomeri	Dastlabki nazorat bali	Oxirgi nazorat Bali	Ballar farqi	O'quvchilar tartib nomeri	Dastlabki nazorat bali	Oxirgi nazorat balli	Ballar farqi
1.	4	5	1	1.	1	2	1
2.	2	5	3	2.	4	5	1
3.	2	5	3	3.	1	2	1
4.	2	4	2	4.	2	4	2
5.	2	5	3	5.	4	4	0
6.	1	5	4	6.	2	2	0
7.	3	4	1	7.	1	2	1
8.	2	4	2	8.	1	2	1
9.	2	5	3	9.	4	4	0
10.	2	5	3	10.	1	2	1
11.	2	5	3	11.	2	2	0
12.	2	5	3	12.	4	5	1
13.	4	5	1	13.	2	2	0
14.	2	5	3	14.	1	2	1
15.	2	5	3	15.	4	5	1
16.	2	4	2	16.	2	2	0
17.	2	5	3	17.	2	4	2
18.	1	5	4	18.	4	4	0
19.	3	4	1	19.	2	2	0
20.	2	4	2	20.	1	2	1
Jami	44	94	50		46	60	14

Shundan xulosa qilib aytish mumkinki, biz ilgari surayotgan nazariy g'oyalarni amaliyotga tadbiq etilganda o'zining ijobiy samarasini berdi.

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlarga muvofiq o'quvchilarning topshiriqlarning murakkablik darajalariga ko'ra o'zlashtirishi (sifat ko'rsatkichi) quyidagi 1-diogrammada keltirilgan gistogrammada ifodalangan:



Keltirilgan gistogramma natijalaridan ko'rinadiki, tajriba guruhlarida o'zlashtirish darajasi nazorat guruhlariga nisbatan yuqori bo'ldi.

Olingan nazorat so'rovlari, ko'rsatkichlari jadval va diagrammalar ko'rinishida tahlil qilib borildi. Bu albatta, dars tipi va o'quv mazmuniga mos keluvchi ta'limning faol usullari mohiyatini yoritishga xizmat qildi.

Ma'lumki, tadqiqot natijasida ilgari surilgan ilmiy faraz to'g'ri bo'lib, amalda samara berishi yoki noto'g'ri bo'lib, samara bermasligi mumkin. Shunga ko'ra tadqiqot ishida ilgari surilgan ilmiy farazning tadqiqot natijalariga ko'ra amalga oshgan yoki oshmaganligini matematik-statistik usulda aniqlash uchun ikki noma'lumni topish formulasidan foydalanib, ikkita holatni ajratib ko'rsatamiz:

1-holat. Dastlabki holat yoki faraz, buni H_0 belgisi bilan ifodalaymiz. H_0 dastlabki holat yoki faraz tekshiriladi: tajriba materiallari o'rganilganidan so'ng, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari oshmadi.

2-muqobil holat yoki faraz, buni H_1 belgisi bilan ifodalaymiz.

H_1 muqobil holat yoki faraz tekshiriladi: tajriba materiallari o'rganilganidan so'ng o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari oshgan.

Ilmiy farazning mazmuniga ko'ra, mezon belgilarining bir tomonlama bo'lishini e'tiborga olish zarur. Buning mazmuni shundan iboratki, shunday holatlarda, ya'ni taxmin qilish uchun etarli asoslar bo'lganda, o'rganilayotgan holatda ikkinchi tajriba natijalari o'sha bitta ob'ekt U_i uchun birinchi tajriba

natijalari X_i ga nisbatan oshishi kuzatiladi. Bu hollarda ikki tomonlama mezonlar o'rniga bir tomonlama mezonlar qo'llaniladi. Bu erda ikki holat mavjud: agar X_i o'sish sur'atiga ega, bu A holat deb olinadi, agar, y_i o'sish sur'atiga ega bo'lsa, B holat deb olinadi. Biz B holatdan foydalanamiz.

Shu tariqa, U_i, X_i qiymatga nisbatan oshish sur'atiga ega bo'lsa, faraz tekshiriladi: $H_0 : P(x_i < y_i) \leq P(x_i > y_i)$

Muqobil holat uchun $H_1 : P(x_i < y_i) > P(x_i > y_i)$

Bu erda P - hodisa ehtimolliligi. Ammo kuzatilayotgan $T > n - t_a$ ko'rsatkich α ko'rsatkich darajasida chetga chiqadi. Bu erda $n - t_a$ jadvaldan topiladi. (-ilovaga qarang). Bu erda T- kuzatilayotgan hodisa ko'rsatkichi, t_a - ishonchlilik oralig'ining chegarasi, α - mezonning ishonchlilik ehtimoli.

Mezon belgilarining kritik belgilari jadvali ikki tomonlama taqsimotga asoslangan. N ning etarlicha katta qiymatlarida, ikki tomonlama taqsimotni odatiy hoi bilan almashtirish mumkin.

Bir tomonlama me'yori holatida t_a quyidagi formula asosida topiladi:

$$t_a = 0.5(n + W_a \sqrt{n})$$

bu erda, W_a - mezonning quvvat funksiyasi, $W_a - \alpha$ ehtimollik uchun aniqlanadigan, odatiy taqsimlanish ko'rsatkichi. $\alpha = 0,05$ da, $W_a = -1,64$; $\alpha = 0,02$ da, $W_a = -2,05$; $\alpha = 0,01$ da, $W_a = -2,58$ ga teng.

H_0 ilmiy faraz: $P(x_i < y_i) > P(x_i > y_i)$ va muqobil $H_1: P(x_i < y_i) < P(x_i > y_i)$ tekshirilganda, $T > n - t_a$ holat uchun H_0 α qiymatga ega bo'ladi (t_a ning qiymati formuladan aniqlanadi).

O'quvchilardan olingan natijalarga ko'ra, ijobiy ko'rsatkichlar farqi T o'zgarmas me'yorni hisoblaymiz. Jadvalda ko'rsatilgan natijalarga muvofiq T_{q15} ga teng. Berilgan har bir 15 juftlik uchun yig'indilar qiymati nolga teng emas. Shuning uchun har 15 juftni hisobga olamiz va h. nq15.

$N - t_a$ o'zgarmas qiymatning me'yoriy qiymatlarini aniqlash uchun maxsus jadvaldan foydalanamiz (4- ilovaga qarang), unga ko'ra $n < 100$.

Darajaning qiymati $\alpha = 0,05$ uchun nq15 qiymatda $n - t_a = 11$ ga teng.

Bunga ko'ra quyidagi tengsizlik bajariladi: $T_{kuzat} > n - t_a$ ($15 > 11$)

Shunga ko'ra, qoidaga muvofiq, $\alpha = 0,05$ qiymatga ega bo'lgan boshlang'ich faraz qoldiriladi va tajriba natijalarini o'rganish natijasida o'quvchilarning bilim va mehnat ko'nikmalarini yaxshilash uchun imkoniyat beradigan muqobil faraz qabul qilinadi.

Shunday qilib mehnat ta'limi darslarini olib borishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llanilganda nazorat sinflariga nisbatan tajriba sinf o'quvchilarining sezilarli darajada muvaffaqiyatga erishganliklari tajribada kuzatildi. Buni 1-rasmdagi gistogrammadan ham yaqqol ko'rish mumkin.

Yuqorida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari natijalaridan quyidagi xulosa va tavsiyalarni chiqarish mumkin:

- tajriba-sinov ishlarida qayd etib o'tilganidek, Kiyimlarni modellashtirish darslarini olib borishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash bevosita ta'lim jarayonining mohiyatini to'laqonli yoritishga va ularni o'quvchilar tomonidan yaxshi o'zlashtirilishiga xizmat qiladi.

- Kiyimlarni modellashtirish oid mashg'ulotlar ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash asosida olib borilsa, ular o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi tasdiqlandi. O'quvchilarning Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellashtirish va badiiy bezak berishga oid egallagan bilim va ko'nikmalarini qiyosiy jadvallar va gistogrammalar yordamida tahlil qilinishi natijasida tajriba guruhlarida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llab olib borilgan dars va mashg'ulotlar samarali bo'lib, o'quvchilarning bilimi, umummehnat ko'nikmalari va malakalari, kasb-hunar kolejlari fanlaridan o'zlashtirish darajasi boshqa guruh o'quvchilariga nisbatan bir muncha yuqori bo'lishi mumkinligi o'z isbotini topdi;

- Kasb-hunar kolejlarida "Kiyimlarni modellashtirish" fanidan darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llab olib borilgan mashg'ulotlarda o'quvchilar faoliyatining faollashganligi, berilgan topshiriqlarni mustaqil bajaruvchi

o'quvchilar sonining o'sganligi kuzatildi. Bundan ko'rinadiki, Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellash va badiiy bezak berish darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashga e'tibor qaratish zarar, deb hisoblaymiz.

Tajriba-sinov natijalariga asosan ta'lim jarayonini faollashtirish, o'qishga nisbatan burch va mas'uliyatni oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash yaxshi samara berdi.

Tadqiqot ishlarini olib borishda asosiy e'tibor o'rganilayotgan muammoning zarurligini ta'kidlab o'tiladi.

Bunday muammo doirasida tashkil etilayotgan tajriba ishlarining puxta ishlab chiqilgan dastur asosida olib borilishi, avvalo, ushbu muammoni ijobiy echimga ega bo'lishini, bu boradagi nazariy g'oyalarning ilmiy jihatdan asoslanishini, shuningdek, ularning haqqoniy bo'lishini ta'minlaydi.

Tadqiqot ishlarini tashkil etishda:

1. Talabani isitib ishlov berish stanoklari mavzusiga oid ko'nikmasini shakllantirish uchun zarur shart-sharoit yaratish;
2. Talabaga ishlov berish stanoklari haqida nazariy tushunchalarni berish;
3. Har bir mavzuni o'zlashtirish maqsadida uni tahlil qilish;
4. Mashg'ulotni tashkil etishda o'qituvchi rahbar emas, balki rahbar o'qituvchi bo'lib qatnashish;
5. Matematik-statistik metodi yordamida tahlil etish vazifalarini oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Kiyimlarni modellash fanining nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarini tashkil etishda, birinchi navbatda talabalar bilimini quyidagicha tartibda baholash me'yorlariga e'tibor qaratildi.

Mashg'ulotlarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish ishining boblarida ko'rib chiqilgan bo'lib, har bir mavzu uchun kerakli bo'lgan metodlarni qay tarzda tanlash va foydalanish haqidagi ma'lumotlar oqilona tarzda batafsil bayon qilingan.

Pedagogik tadqiqot natijalarini tahlil qilishda matematik-statistika metodidan foydalanildi.

Bunday metodni qo'llash, tadqiqot natijalarini ishonchliligi yoki ishonchsizligini isbotlanishini ta'minlashga imkon yaratadi. Shu sababli statistik metodning qo'llanilishi izlanish tavsifidagi tadqiqot ko'lamini o'zgartirmaydi.

Tajriba - sinov ishlari 2013-2014 o'quv yilining ikkinchi yarmida Namangan shahar Yengil sanoat kasb-hunar kolejarida "Kiyimlarni modellash" fanidan "Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellash va badiy bezak berish" mavzusi o'tkazilgan

Pedagogik tajriba-sinov ishlaridan ko'zlangan maqsad, talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'qitish jarayonida o'quv faoliyatini rivojlantirishga, ularni fikrlash jarayonini o'sishiga ko'maklashishni aniqlashdan va mustaqil o'quv faoliyat malakalarini rivojlantirishni ta'minlay olishni tekshirib ko'rishdan iborat.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, mashg'ulotlarini samaradorligini oshirish, ta'lim jarayonida bir xillikdan qochish, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, talabalarning fikrlash qobiliyatlarini o'stirish, ularning ilmiy tafakkur va izlanuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berish hamda bilim darajasini aniqlashdan iborat edi.

Xulosa

Kasb hunar kolejlarida ta`lim olayotgan talabalarga o`rgatish jarayonida ularning faoliyatini aktivlashtirish, fikrlash qobiliyatlarini o`stirish hamda amaliy tayyorgarligini amalga oshirish haqidagi masalalarga respublikamiz mustaqillikka erishgandan boshlab katta e`tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, Men kasb-hunar kolejlarida “Kiyimlarni modellashtirish” fanidan “Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellashtirish va badiiy bezak berish” bo`yicha bitiruv malakaviy ishini bajardim. Bitiruv malakaviy ishi mavzusi qiziqarli bo`lganligi uchun ko`p adabiyotlar bilan ishladim. Bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida internet saytlaridan ma`lumotlar oldim, mavzu bo`yicha adabiyotlarni o`rgandim, o`tilgan mutaxassislik fanlaridan o`rgangan bilimlarim va mutaxassislik fanlaridan laboratoriyalarida o`rgangan amaliy ishlarim yaqindan yordam berdi.

Shuningdek, “Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellashtirish va badiiy bezak berish” loyihalashidan tayyor holga keltirishgacha bo`lgan jarayonlarni bajarish ketma-ketligini yozish bilan barcha tikuvchilik kiyimlarini ham shunday ketma-ketlikda bajarish mumkinligi haqida xulosaga keldim.

Kelajakda o`zim orzu qilgan kasb egasi bo`lib, davlatimizning tikuvchilik sanoatini rivojlantirishga astoydil harakat qilmoqchiman.

Tikuvchilik korxonalarini jihozlari mashg`ulotlarining optimallashtirish hamda ishlab chiqarish jarayoniga yaqinlashtirish bo`yicha davlat ta`lim standartlari asosida juda ko`plab o`zgartirishlar kiritildi. Bu o`zgartirishlar rivojlangan mamlakatlarning pedagogika sohasidagi tajribalarini, to`plagan bilimlarini va erishgan yutuqlarini har tomonlama muhokama qilish va hozirgi zamonaviy texnika va texnologiya yutuqlarining ta`siri natijasiga ko`ra amalga oshirilayotgan ishlardir.

Ushbu bitiruv malakaviy ishda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- ishning kirish qismida mavzu asoslandi;
- asosiy qismda hozirgi vaqtda kollejlarda qo`llanilayotgan Davlat ta`limi standarti asosida tuzilgan o`quv reja tahlil qilindi, tahlil asosida “Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellashtirish va badiiy bezak berish” mavzusiga zamon talabiga mos keladigan materiallar tanlandi;

Asosiy qism

-asosiy qismda Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellash va badiy bezak berishga oid nazariy ma`lumotlar bayon qilindi.

-Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellash va badiy bezak berish mavzusiga oid amaliy ishlarni tashkil etishning pedagogik asoslari tahlil qilindi;

-Ayyollar mavsumiy va qishki paltolarini modellash va badiy bezak berish mashg`ulotlarini tashkil etish usullari berildi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki,ushbu bitiruv malakaviy ishda keltirilgan materiallar kollej o`qituvchilari va o`quvchilari uchun foydali materiallar bo`lib qoladi deb o`ylaymiz.

Agar kelajakda kollej o`quvchilari uslubiy ko`rsatmalar ishlab chiqilsa, maqsadga muvofiq bo`lar edi.

Bugun biz barkamol avlod asri bo`lib, rivojlana bormoqdamiz. Bu davrda informatsion texnologiyalar turlari texnika sohasidan tashqari insonlarning jismoniy ehtiyojlarini qondirish, ish unimini oshirishdagi roli, ularning ahamiyati, foydali tomonlari juda katta. Albatta bu sohada ko`plab yangiliklarni yaratishimiz lozim. Bu albatta mustaqil yurtimizning o`z mustaqil fikriga ega bo`lgan farzandlarini qo`lidan keladi.

Bundan ko`zlangan asosiy maqsad, kiyimlarni modellash fanidan mashg`ulotlarini samaradorligini oshirish, ta`lim jarayonida bir xillikdan qochish, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o`quvchilarning kasbiy qobiliyatlarini o`stirish, ularning ilmiy tafakkur va izlanuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berish hamda bilim darajasini aniqlashdir.

Malakaviy ish kasb-hunar kollejlari "Kiyimlarni modellash" faniga o`quv uslubiy majmua yaratish va uni mashg`ulotlar o`tkazishda foydalaniladigan vositalardan biri bo`lib xizmat qiladi, degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Inson xotirasi – boqiy, qadr qimmatini – ulugʻ “Xalq soʻzi” 10 may 2012 yil 91 son.
2. Karimov I.A. “Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” / I.A.Karimov – T: Oʻzbekiston, 2011. – 97 b.
3. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. “Xalq soʻzi” 30 yanvar 2010 yil 21 son.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir “Xalq soʻzi” 28 yanvar 2010 yil 19 son.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, Oʻzbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yoʻllari va choralari / I.A.Karimov. – T: Oʻzbekiston, 2009.– 56 b.
6. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezonini boʻlishi dardkor. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senatining beshinchi yalpi majlisidagi maʼruza: “Xalq soʻzi” 2006 yil 25 fevral.
7. Matuzova Ye.M. va boshqalar «Ayollar yengil kiyimini konstruksiyalash va modellashtirish asoslari» Toshkent 1998 «Oʻqituvchi»;
8. Kasb-hunar kollejning davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi. Toshkent 2010 yil
9. Avozbueva O.I, R.G.Isyanov X. Odilboev. Kasb taʼlimi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashgʻulotlari. T., TDPU 1995 y.
10. Azixova N.N.. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. T. 2003 y.
11. Azizova N.N., Oʻqituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. 2000 y.
12. Q. Abdullaeva M., M.A. Mahsumova, M.X. Raximjonova “Gazlamalarga badiiy ishlov berish” oʻquv qoʻllanma Toshkent 2006.
13. Boltaboev S.A., Ismoilova M.M. Kasb taʼlimi metodikasi fanidan kurs ishlari (Metodik qoʻllanma). T.: TDPU 2002 y.
14. Gaipova N.S., Ismatullaeva M.Z., Tikuvchilik texnologiyasi asoslari. oʻquv qoʻllanma Toshkent 2006
15. Gulomov S.S. Menejment: boshqaruv sanʼati, nazariyasi va amaliyoti. T., Tosh DAU, 2002 y.

- 16 Davlatov K., A.Vorobyov, I.Karimov. Kasbta'limi nazariyasi hamda metodikasi. T.O'q. 1992 y.
17. Davlatov K. D., Kasbta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg'ulotlar: Pedagogika instituti talabalari uchun qo'llanma.-T.: «O'qituvchi», 1995 y.
18. Ziyomuxammedov B. Pedagogika. T. 2000 y.
19. Jabboriva M “Tikuvchilik tehnalogiyasi” “o'qtuvchi” nashryoti Toshkent 1989 yil nashryoti” M. Ch. I Toshkent 2006
20. Ishmuxamedov R.J.. Innovasion texnologiyalar yordamida o'qitish samaradorligini oshirish yo'llariyu. T. 2003 y.
- 21 Isaev V.V. Tikuvchilik korxonalarining jixozlari. Darslik, Toshkent. 1985.
22. Muslimov I.A., Boltaboev S.A., Sharipov Sh. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Kasb ta'limi yo'nalishi magistrantlari uchun qo'llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU 2003 yil.
23. Ochilova T.A va boshqalar. “Tikuvchilik materialshunosligi” darslik., Toshkent, 2007 yil.
24. «Tikuvchilik ishlab chiqarish» yo'nalishi bo'yicha o'quv qo'llanmasi. Toshkent 2008yil
25. Qulijanova G.Q, S.S. Musaev “Engil sanoat mahsulotlari tehnalogiyasi” o'quv qo'llanma. G' G'ulom nomidagi nashiryot – matbaa ijodiy uyi Toshkent 2002
26. SHarifxo`jaev M., Abdullaev YO. Menejment, darslik T., «O`qituvchi» 2001 y
- 27.** Gasanov M., Sokolov E. O'zbekistonning mehnat to'g'risidagi qonun xujjatlari – T.: «O'qituvchi» 2001.-482 b.
- 28.Parmonov A.E., Igamberdiev A. Hayot faoliyati havfsizligi. -T.: «Iqtisod-Moliya» 2008.-196 b.
- 29.Rahimova X., Azamov A., Tursunov T. Mehnatni muhofaza qilish. -T.: «O'zbekiston» nashriyoti 2003.-210 b.
- 30.** X.N. Komilova, N.K. Xamraeva «Kiyim loyixalash asoslari» Toshkent 2005
- 31.Matuzova Ye.M. va boshqalar «Ayollar yengil kiyimini konstruksiyalash va modellashtirish asoslari» Toshkent 1998 «O`qituvchi»;

- 32.E.M. Matuzova va boshqalar «Razrabotka konstruktsiy jenskix shveynqx izdeliy ‘o modelyam» Moskva-1983;
- 33.I.M. Bratchik «Konstruirovaniye jenskix ‘alg’to slojno`x form i ‘okroev» Moskva-1987;
- 34.Federalg`nqy kom`lekt uchebnikov «Konstruirovaniye mujskoy i jenskoy odejdq» Moskva-2000 g.
- 35.«Edinaya metodika konstruirovaniya odejdq SEV» tom 1,2,3 Moskva-1988
- 36.www.ziyonet.uz/uzc/education/.../card/.../11362